

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O‘RTA MAXSUS TA‘LIM VAZIRLIGI
ALISHER NAVOIY NOMIDAGI
SAMARQAND DAVLAT UNIVERSITETI
O‘ZBEK FILOLOGIYASI FAKULTETI
HOZIRGI ZAMON O‘ZBEK ADABIYOTI KAFEDRASI
“Badiiy asarlarda “O‘g‘ri” obrazi talqini” mavzusida
BITIRUV MALAKAVIY ISH

Bajaruvchi: Zaripov A.
Ilmiy rahbar: f.f.n. Davronova M.I.

Samarqand - 2013

REJA:

I. KIRISH

II. ASOSIY QISM:

I BOB. BADIY ADABIYOT TARIXIDA O'G'RI OBRAZIGA NAZAR

1.1 Folklor asarlarda o'g'ri obrazi haqida;

1.2 Mumtoz asarlarda o'g'ri obrazi xususida.

II BOB. HOZIRGI ZAMON ADABIYOTIDA O'G'RI OBRAZI TALQINI

2.1 Hozirgi zamon nasri va nazmida o'g'ri obrazi;

2.2 Asarlarda salbiy va ijobiy ma'nodagi o'g'ri obrazlari tasviri.

III. XULOSA.

ADABIYOTLAR RO'TXATI.

KIRISH

Mavzuning dolzarbligi. Istiqlol sharofati bilan ijtimoiy hayotimizdagi o'zgarishlar, bevosita uning badiiy inikosi bo'lgan adabiyotimiz olamida ham tubdan o'zgarishlarni sodir etdi. Fikrlashdagi erkinlik, mulohaza yuritishdagi teranlik badiiy ijod jarayoniga kirib keldi. O'zbek adabiyoti va adabiyoshunosligining istiqlool davri taraqqiyoti o'ziga xos yangicha tamoyillar, milliy va umumbashariy qadriyatlar asosida yo'l ko'rsatdi. Prezidentimiz I.A. Karimov: "Ma'anviyat haqida gap ketar ekan, men avvalo, insonni ruhiy poklanish va yuksalishga dav'at etadigan, uning imon irodasini, vijdonini uyg'otadigan qudratli botiniy kuchni tasavvur qilaman. Erkin fuqaro ma'naviyatini, ozod shaxsni shakllantirish masalasi oldimizda turgan eng dolzarb vazifadir."¹ – degan edi. Bu jabhada badiiy adabiyotning va tafakkurning o'rni beqiyos darajada kattadir.

O'zbek adabiyoti umumjahon adabiyotining ajralmas tarkibiy qismidir. Yangicha milliy-adabiy tafakkur, realistik nasr rivoji XX asr boshlarida qalam tebratgan A.Qodiriy, Cho'lpon, Fitrat va boshqa ijodkorlarga borib taqaladi. Ular yangi davr adabiyotida Yevropa adabiyoti mezoni bilan o'lchaganda ham to'laqonli asarlar yaratdilar, realistik yo'nalishga xos xususiyatlarni ijodiy o'zlashtirdilar. Ijodda haqqoniylik, hayotiylik va milliylik tamoyillari kuchaydi.

20-30-yillar o'zbek adabiyoti tajribasi shuni ko'rsatadiki, milliy adabiy tizimda realizm shakllanishi va taraqqiyoti izchil mantiqiy rivojlanish, adabiy-estetik tafakkur murakkablashib borishining muayyan hosilasidir. Aynan, shunday jiddiy evrilishlar natijasida modernizm adabiyoti ham bo'y ko'rsata boshladi. Chunki, jahon adabiyoti va ma'naviyati va madaniyati ta'sirida rivojlangan adabiyot xilma-xil shakllarda o'zgarib turdi.

Biz yashayotgan kunlar millatlar hayotida yaqinlashuv, davlatlararo siyosatda globallashuv, ilm va estetikada universallashtirish jarayoni borayotganligi bilan xarakterlanadi. Olam torayib, odamning muloqot imkoniyatlari kengayishi dunyo ahlini bir-biriga yaqinlashtirdi. Bu hol ochunning turli burchaklarida hayot

¹ Каримов И.А. Ўзбекистон XXI асрга интилоқда. Т.: "Ўзбекистон" 1999 – йил 17 – бет

kechirayotgan, yashash sharoiti bir-biridan tamomila farq qiluvchi kishilarning o'y va sezimlarida umumiylikning ko'payib borishiga olib kelmoqda. Shuning uchun ham hozirgi adabiyotda voqyelikni tasvirlashga qaraganda, inson ruhiyatini taftish qilishga ko'proq e'tibor berilayotir. Bugungi adiblar uchun hayotiy reallik birlamchi ahamiyat kasb etmaydi. Unga badiiy reallikni ta'minlash vositasi debgina qaraladi. Bugun badiiy asar ro'y bergan qiziqarli voqealar tasviridan emas, balki inson ko'ngli to'lg'amlarining mikrotahlilidan iboratdir. Har bir inson olam va odamiyatni o'zini anglar darajadagina anglay oladi. Shuning uchun bugungi adabiyotda odamdan tashqaridagi voqealarga emas, inson ruhiyatida sodir bo'layotgan jarayonlarga ko'proq e'tibor qaratilayotir.

Ayni paytda turli adabiy oqim va maktablar tajribasini o'rganishga astoydil harakat qilindi. Biroq, siyosat estetik imkoniyatlarning to'la rivojiga imkon bermadi, ijodiy erkinlik cheklanib, estetik polifoniya va plyuralizm badiiy idrokdan siqib chiqarila boshlandi.

XX asrning oxirgi yillari istiqlool adabiyoti deb atalmish estetik hodisani yuzaga chiqardi. Aslida, milliy adabiyotning 90-yillarida bo'y ko'rsatgan yetakchi poetik xususiyatlarning ayrim belgilari 60-yillardayoq ko'zga tashlanib, 80-yillarning adog'ida to'liq barqarorlashgan edi. Biroq davr adabiyotiga xos belgilar 90-yillarning o'rtalaridagina muayyan tizim tamoyiliga kirdi. Ayni paytda, istiqlool davri adabiyoti, xususan, o'zbek adabiyoti ko'p asrlik milliy prozaning mantiqiy davomi va merosxo'ridir. Binobarin, u oddiy xronologik bosqich bo'lmay, jiddiy o'zgara boshlagan milliy-badiiy ongning, yangilanayotgan estetik tafakkurning hosilasi hamdir. U yagona hukmron mafkura tazyiqidan qutulayozgan dunyoni har xil va erkin anglash, izohlash hamda ifodalash imkoniyatiga ega bo'lgan millat ijodiy dahosining samarasi sifatida maydonga keldi. Adabiyotning hukmron mafkura tazyiqidan xalos bo'lishi olam va odam ruhiyatiga mansub hodisalarga turli rakurslarda qarash va ifodalash imkoniyatlarini kengaytirdi. Millat kishisining ruhiyati, hissiyoti, ko'ngli butun murakkabliklari bilan badiiy tadqiq etila boshlandi. Badiiy adabiyot qahramonlari o'zining murakkab taqdiri, teran o'y-mulohazalari, nozik kechinmalari bilan o'ziga xos tabiatga ega bo'la boshladi.

Bugungi adabiyotni jo'ngina izohlash, tushuntirish yoxud ilmiy qoliplarga solish mumkin bo'lmay qoldi. Bularning barchasi tasvir predmetining rang-baranglikdagi uslubiy izlanishlar chuqurlashuvi, kengayishi va boyishi natijasidir. Alohida ijodkorga taalluqli bo'lgan badiiy mantiq individual teran sezimlar va moddiylashtirilgan murakkab kechinmalar bag'ridan sizib chiqishi anglab yetildi. Ilgari bosqichlarga nisbatan rang-baranglikning quyuqlashishi inson ruhiyati qatlamlarini aks ettirishdagi miqyos va nisbatlar, ifoda tarzidagi dadil izlanishlar favqulodda uslubiy boylikni yuzaga keltirdi.

Mustaqillik davri adabiyoti yangi ohanglar hisobiga boyidi. Uning ifoda tarzi jahonning ilg'or an'analarini o'zlashtirish va milliy adabiyot tajribalarini davom ettirish hisobiga o'zgacha usullar bilan boyidi. Ifodaning qabariqligi, tasvirning serqatlamliligi, mazmun, ruhiy holat manzaralarining rang-barangligi bilan insonni badiiy tadqiq etishga badiiy usullar (bayon, ifoda etish, ko'rsatish, tasvirlash)ning o'z o'rnini bo'shatib berayotganligi bilan alohidalik kasb etadi. Qahramon xayoloti va kechinmalaridagi jarayonlarni tasvir obyektiga aylantirish, reallashtirish, uni yanada to'laroq ilg'ashga intilayotganligi bilan o'ziga xosdir. Millat kishisining fikr tarzi, axloqiy qanoati nafaqat an'anaviy yo'sinda, balki dunyo adabiyotidagi eng so'nggi ifoda usullaridan dadil, samarali foydalanish, an'anaviylik bilan yangilikni omuxtalashtirish vositasida namoyon bo'lmoqda.

Fan-texnika inqilobi tizimi va globalushuv jarayoni shiddati nafaqat turmush tarzini, balki tafakkurning shakl va mundarijasini ham tubdan yangilab yubormoqda. Shu ma'noda, so'nggi bosqichda, ayniqsa, ijodiy tajribalar qilish, kutilmagan tasvir yo'llarini izlash va qo'llash, badiiy ifodaning yangi tamoyillaridan foydalanish yetakchi xususiyatga aylandi. Biroq badiiy adabiyotimizda shunday obraz mavjudki, bu obraz davrlar o'tsa-da, o'zgarsa-da barcha jamiyatda o'z o'rniga ega bo'lib kelmoqda. Bu obraz o'g'ri obrazi hisoblanadi. Adabiyotshunosligimizda o'g'ri obrazi to'laqonli o'z tadqiqiga ega emas. Bu esa malakaviy bitiruv ishimizning dolzarbligini belgilaydi.

Mavzuning o'rganilganlik darajasi. O'zbek adabiyotshunosligida o'g'ri obrazi mavjud bo'lgan u yoki bu asarlar tadqiq etilgan. Asosan o'g'ri obraziga alohida e'tibor qaratilmasdan balki yozuvchi asarlarining g'oyaviy mazmuniy uslubiy jihatidan tahlil etilishi, qissa, hikoya va romanlardagi obrazlar, ularning mohiyati tanqidchilar tomonidan keng o'rganilgan. Bu borada, jumladan, M.Qo'shjonov, O.Sharofiddinov, U.Normatov, Q.Yo'ldoshev, A.Rasulov, D.Quronov, I.Yoqubov, R.Qochqor, U.Hamdam kabi adabiyotshunos, munaqqidlarning xizmatlari kattadir. Mazkur olimlarning sa'y-harakati bilan o'zbek adiblari adabiy merosining g'oyaviy-badiiy qimmat, estetik ahamiyati hamda adibning o'zbek nasrida tutgan o'zni baholiqdrat o'z bahosini topdi¹.

Badiiy adabiyotdagi o'g'ri obrazi tanqidchilar tomonidan bir qancha asarlar asosida o'rganildi. Masalan, Abdulla Qahhorning "O'g'ri" hikoyasi, yoki G'afur G'ulomning "Mening o'g'rigina bolam" hikoyalari tahlilga tortildi. O'g'ri obrazi keng kitobxonlar ommasiga yaqinlashdi. Biror bir jamiyatni o'g'ri shaxsisiz tasavvur etib bo'lmay qoldi. Bu esa yangi-yangi asarlarda ham o'z ifodasini topa boshladi. Biroq biror bir tadqiqotda o'g'ri obrazi alohida obraz sifatida talqin etilmadi.

Shunday ekan, mazkur tadqiqot o'g'ri obrazi badiiyatini yoritishga xizmat qiladi va xalq og'zaki ijodidan boshlab to bugungi kungacha bo'lgan asarlardagi o'g'ri obrazini qiyosan o'rganish, mushtarak va farqli jihatlarini ko'rsatish muhimligini belgilaydi. O'g'ri obrazining ijobiy yoki salbiy qiyofasi, ruhiyatining tanqidchilar nazaridagi bahosini shu orqali tanqidchilik mahorati masalasiga e'tibor qilish zarurligini ko'rsatadi.

Tadqiqot maqsadi va vazifalari. O'g'ri obrazining badiiyatini o'rganish, uni xalq og'zaki ijodidan boshlab to bugungi kungacha bo'lgan

¹ Шарофиддинов О. Мамажонов С. , Норматов У. ва б. XX аср ўзбек адабиёти тарихи. – Т.: “Ўқитувчи”, 1990. Йўлдошев Қ. Ёниқ сўз. Адабий ўйлар. – Т.: “Янги аср авлоди”, 2006. Расулов А. Бадийлик – безавол янгилик. – Т.: “Шарқ”, 2007. Қуронов Д. “Адабиёт надур” ёки Чўлпоннинг мангу саволи. – Т.: “Заркалам”, 2006. Қуронов Д. Қалбларни ларзага солган хиргоя. // Хуррият, 2008 йил 6 феврал. Ёқубов И. Ўзбек романи тадрижи. – Т.: Фан ва технология, 2006.

jarayondagi o'rnini aniqlash va qiyosiy o'rganish mazkur ishning maqsadidir. Shu maqsaddan kelib chiqqan holda ishda quyidagi vazifalarni hal etish ko'zda tutiladi:

- O'g'ri obrazini hozirgi o'zbek tanqidchiligida o'rganilishiga diqqat qilish;

- Bu obrazni xalq og'zaki ijodidagi o'rnini o'rganish;

- Mumtoz adabiyotdagi o'g'ri obrazining o'ziga xosligi nimalarda ko'rinishini tanqidchilarning mulohazalari asosida tadqiq yetish;

- Bugungi o'zbek adabiyotida o'g'ri obraziga munosabatni tanqidchilar nuqtai nazaridan yoritish;

- "O'g'ri" va "Mening o'g'rigina bolam", «Shaytanat» va boshqa asarlardagi qahramonlarga munaqqidlar munosabati, tahlil va talqinlardagi o'xshash va farqli tomonlarini ko'rsatish.

Tadqiqot obyekti va predmeti. Ishda o'g'ri obraziga bag'ishlangan maqolalar va asarlar manba sifatida olindi. Shuningdek tadqiqot davomida xalq og'zaki ijodidan boshlab to bugungi kundagi asarlarga ham murojaat qilindi.

Tadqiqotning metodologik asoslari. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan ishlab chiqilgan Kadrlar tayyorlash Milliy dasturidagi ko'rsatmalar, Prezident I.A.Karimovning milliy madaniyat va ma'naviyatni rivojlantirishga doir nazariy asarlari tashkil etiladi.

Ishning ilmiy-nazariy yo'nalishini belgilashda I.Sulton, O.Sharofiddinov, B.Nazarov, A.Rasulov, D.Quronov, Q.Yo'ldoshev, R.Qo'chqor, I.Yoqubov kabi munaqqidlarning asarlari metodologik asos bo'lib xizmat qiladi.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi. O'g'ri obrazi badiiyatini hozirgi o'zbek tanqidchiligida o'rganilishi, ilk bor yaxlit holda tadqiq etildi. O'g'ri obrazinig badiiy asarlardagi o'rnini va u orqali ijtimoiy hayotni ifoda etilishini ilk qiyosiy o'rganib, o'g'ri obrazining o'zbek adabiyotidagi o'rni va o'ziga xos tomonlarini yoritish ishning jiddiy tadqiqot sifatidagi ilmiy yangiligini

belgilaydi.

Ishning nazariy va amaliy ahamiyati. Ushbu tadqiqotning natijalari va xulosalari adabiyotshunoslik va tanqidchilikda o'g'ri obraziga munosabat jihatidan bir necha munaqqid va yozuvchilar asarlarini o'rganish va shu orqali adabiyotda uning o'rmini ko'rsatish, tadqiq etish va tahlil qilish tajribalarini yoritish muammolarini hal etishda samarali ulush bo'lib qo'shilishi shubhasiz. Shuningdek, yana xulosalardan o'zbek adabiyotshunosligi va tanqidchiligida o'g'ri obrazi muammolarini o'rganishda, qolaversa, adabiy jarayonga munosabati masalasini tadqiq etishda nazariy manbaa sifatida foydalanish mumkin.

Ishning amaliy ahamiyati shu bilan belgilanadiki, uning natijalari akademik litsey va kasb-hunar kollejlarda o'g'ri obrazini o'rganish, shu bilan bir qatorda o'g'ri obrazi badiiyatini ko'rsatish bo'yicha ma'ruzalar o'qishda, amaliy mashg'ulotlar olib borishda, oliy o'quv yurtlari filologiya fakultetida mavzu yuzasidan kurs ishlari, referatlar yozishda qo'l keladi.

Ishning tuzilishi va joriy yo'nalishi. Ish kirish, ikki bob, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat.

I BOB. Adabiyotimiz tarixida o'g'ri obraziga nazar

1.1 Folklor asarlarda o'g'ri obraziga nazar.

Adabiyotda har bir asar albatta obrasiz bo'lmaydi. Badiiy obraz tushunchasi esa tor ma'noda asarda qatnashayotgan odam timsolidir. Asarlarda shunday qahramonlar bo'ladiki biz ularga ko'pam e'tibor beravermaymiz. Shunday obrazlardan biri bu shubhasiz asarlardagi o'g'ri obrazidir. Badiiy asarlarda obrazlarning xilma-xilligi va ularning har birining ma'lum yuk tashishi barchamizga ma'lum. O'zbek va jahon nasrining ko'plab asarlariga nazar solsak ularda o'g'ri obrazi qatnashganini ko'ramiz. Eng qadimiy asarlarda ham, folklor namunalari bo'lmish maqol va matallarda ham, xalq ertaklarida ham shu jumladan "Qissasi Rabg'uziy" asari "Ming bir kecha" turkumidagi ertaklarda ham, zamonaviy o'zbek nasridagi A.Qahhor, G'.G'ulom, T.Malik va boshqalar ijodida ham ko'ramiz. Adabiyotimizdagi adiblarning asarlarida aynan real ma'nodagi predmet (ho'kiz, qozon-tovoq, tovuq, yegulik)lar o'g'irlanadi. G'afur G'ulomning "Mening o'g'rigina bolam", Isfandiyorning "O'g'ri" jahon adabiyoti vakillari hisoblangan O. Genri hikoyalari yoki turk adibi A. Nesin ijodida asa o'g'ri obrazining har xil ko'rinishlarini kuzatishimiz mumkin.

O'zbek adabiyotining juda qadim davrlaridan boshlab hatto folklor namunalarida ham bu obraz uchraydi. Qadimiy purma'no maqollarimizda bu mavzu xususida misollar anchagina va yana ertak janrida ham o'g'ri obrazining badiiyatini ochib bera oladigan, ibrat bo'la oladigan o'rinlar anchagina.

Jumladan, maqollarga nazar soladigan bo'lsak, "O'zbek xalq maqollari" kitobida o'g'ri va o'g'rilik bilan bog'liq bo'lgan yuzga yaqin maqollar keltirilgan. Shulardan ayrimlarini sharxlashga va ulardagi o'g'ri obrazining badiiyatini imkon qadar ochishga harakat qilamiz. Xalq maqollarida shunday maqollar keltiriladi:

O'g'ri bitta, gumoni mingta.

Hayotda biror bir predmet yo`qolsa albatta insonda shubha uyg`onadi. Bu shubha har xil gumonlarga yo`l ochadi. Natijada esa biz ko`rmagan bo`lsakda, qo`limiz bilan tutmagan bo`lsakda barchadan birdek gumon qilaveramiz. Shu sababli gumonda qolganlar o`g`riga nisbatan o`n barobar yoki ming barobar ko`payib ketadi. Dono xalqimiz esa shu sababli gumon mingta deya ta`kidlaydi.

O`g`ri do`qi bilan qo`rqitar,

Yomon ayol – yig`isi bilan.

O`g`ri zo`r bo`lsa, davogar javobgar bo`lar.

O`g`ri itning quyrug`i qisq bo`lar.

O`g`ri kirar joyini emas, chiqar joyini ko`zlar.

Ko`rinayaptiki bu yerdagi maqollarning hammasida o`g`rilik va uning ziyoni, uning hiyla-nayranglarining qay yo`sinda amalga oshishi, hattoki o`g`rining salbiyligini ochish uchun o`g`ri itning quyrug`i qisq bo`lishini yoki o`g`ri po`pisa bilan qo`rqitishini, yomon ayol yig`isi bilan qo`rqitishini ham aytib o`tgan. Agar o`g`ri shunchalik uddaburon bo`lsa, davogarning o`zi javobgar bo`lib qolishini uqtiradi. Yana bir misolda ta`sirchanlikni oshirish maqsadida o`g`rilik voqealarini hayvonlar misolida ham isbot etish o`rinlari mavjud. Jumladan, “O`g`ri mushuk kunda uxlab, tunda kezar”, “O`g`ri tun oshguncha, bo`ri do`ng oshguncha”, “O`g`ri qarisa yolg`onchi bo`lar, bo`ri qarisa sichqonchi bo`lar” va hokozolar. Maqol shaklan qisqa bo`lib, voqelikni yoyiq holda ifoda qila olmaydi. Binobarin, maqollarda voqelikni siqiq va ixcham ifodalaydigan aniq va hayotiy obrazlar mavjudki, ular umumiy mulohazalarning yakunidan kelib chiqqan xulosani ko`chma ma`nolarda belgilash imkonini beradi. Ba`zan u yoki bu maqol topishmoq singari tuzilgan bo`lib, voqelik qiyos qilish, solishtirish orqali aniqlanadi: «Yoz yomg`iri loy bo`lmas, o`g`ri aslo boy bo`lmas».

O`zbek xalq maqollarida o`g`ri va unga daxldor mavzudagi maqollar juda ko`p uchraydi:

O'g'ri oydindan qo'r qar.

O'g'ri tom teshar, qaroqchi yo'l to'sar.

O'g'ri o'z soyasidan qo'r qar.

O'g'ri o'ziga o'rtoq tilar, yomon o'ziga kaltak tilar.

O'g'ri o'la-o'lguncha to'g'riman der.

O'g'ri o'g'irlab yo'lga tushar, oxiri borib qo'lga tushar.

O'g'ri o'g'rini qorong'ida tanir.¹

Maqollarda yana o'g'ri va to'g'ri o'rtasidagi tafovut ular o'rtasidagi zidlik va qiyoslash haqida ham gap ketadi. Jumladan, quyidagi maqollarda bunga guvoh bo'lamiz:

O'g'ri qutilar, to'g'ri tutilar.

O'g'riga rahm qilish, to'g'rining sho'rini quritar.

O'g'rini o'g'ri desang o'lgisi kelar,

To'g'rini o'g'ri desang kulgisi kelar.

O'g'rining ishiga, to'g'ri uyalar.

O'g'rining uyi ko'p, to'g'rining uyi to'q.

O'g'ri boylik topsa baxtidan ko'rar,

To'g'ri boylik topsa mehnatidan ko'rar.

O'g'rilik ko'zdan boshlanar, to'g'rilik so'zdan.

To'g'rilik to'rga eltar, o'g'rilik go'rga.

¹ Ўзбек халқ мақоллари. II том – Т.: “Фан”, 1988. 251-б

Folklordagi maqollarimizda yana o'g'ri va jabrdiyda xususidagi maqollar ham bo'lib ular juda qiziq ifodalangan:

O'g'ri ham noliydi, o'g'irlatgan ham.

O'g'ri o'g'ri emas, mol egasi o'g'ri.

O'g'ri zo'r bo'lsa, davogar javobgar bo'lar.

Maqollarda hatto “O'g'rining xotini o'ziga loyiq” qabilidagi maqol ham uchraydi. O'g'rilik voqealarining ifodalanishi va bunga munosabat ham atroflicha berib o'tiladi. Jumladan, “O'g'rining molini o'g'irlasa, tangrining kulgisi kelar” maqolida juda chiroyli hajviy tasvir ham bor. Demak, maqollarda ham kulgu motivlari ustunlik qiladigan o'rinlar anchagina:

O'g'riga o'g'rilikdan mol kirmasa,

O'z bo'rkini o'zi o'g'irlar.

Quyidagi maqolga e'tibor qilaylik:

O'g'ridan qolgani romchiniki.

Bu maqolda juda katta ma'no yashiringan. Uni to'liq tahlil etadigan bo'lsak birgina Abdulla Qahhorning “O'g'ri” hikoyasidagi Qobil boboni misol qilib keltirish kifoya. Maqoldagi o'g'ridan qolgani folchiniki qabilidagi maqol “O'g'ri hikoyasining mazmuniga ham mos keladi. Hikoya bosh qahramoni Qobil bobo ho'kizi yo'qolganidan keyin, uni topish ilinjida turli amaldorlarning og'zidan chiqqanini qilaman deb ancha qiynalib qoladi. Asarda aytilganidek “Quruq qoshiq og'iz yirtar”, “Berganga bitta ham ko'p, olganga o'nta ham oz” yo'sinida ish qilib turli amaldorlarga uyidagi hamma narsani tashishi ya'ni, o'g'ridan qolganini romchiga berishi emasmi? Ishimizning ikkinchi bobida “O'g'ri” hikoyasiga yana to'xtalamiz.

O'zbek xalq maqollarida yana o'g'ri shaxsning ta'na a'zolari va ularning o'g'irlik jarayonidagi harakatlari haqida ayniqsa ko'p gapirilgan. Masalan, “O'g'rining ko'zi”, “O'g'rining qo'li”, “O'g'rining oyog'i”, kabi ko'chma ma'nodagi birliklar ham uchraydi. Quyidagi maqollarga e'tibor qilamiz:

O'g'ring ko'zi o'ljada.

O'g'ring o'zi bitta, ko'zi yuzta.

O'g'ring o'zi tavba qilsa ham, qo'li tavba qilmas.

Bu yerdagi maqollardagi “o'g'ring qo'li” birikmasi juda qadimdan qo'llangan va keng ma'no ifodalagan. O'g'rilik sodir etilganda, uning o'g'rilikni sodir etgan a'zosi sifatida qo'li kesilgan. Ba'zi islom mamlakatlarida bu qonun sifatida hali ham mavjud. Maqollar kitobida ham bu quyidagicha o'z aksini topgan:

O'g'ri qo'li kesilmaguncha, o'g'rilikni qo'ymas.

Maqollarda o'g'rini insofga chaqirish xususida, o'g'ri bo'lsada insofli bo'lish haqida ham uqtiradi:

O'g'ri bo'l, qaroqchi bo'l, insofli bo'l.

O'g'ri bo'lsang ham insofli bo'l.

Maqollarimizda shundaylari borki, ular ikki o'rinda ikki xil ifodalansa ham, uqtirilayotgan fikr bir joyga olib boradi. Masalan, yuqoridagi “O'g'irlikning tagi kulday, to'g'rilikning tagi tog'day” maqoli boshqa bir o'rinda “O'g'irlik molning tagi qilday, to'g'rilik molning boshi tog'day” shakli bilan kelgan. Maqollarda ba'zi o'rinlarda hatto o'g'rilikdan ham yomon hodisalar bor ekanligi haqidagi fikrlar ham uchraydi:

O'g'ri tushsa bir narsa qolar, o't tushsa hech narsa qolmas
yoki,

O'g'ridan qolsa qolar, olovdan hech narsa qolmas.

Bu maqollarning har ikkalasida bir fikr aytilmoqda. Bunda agar o'g'ri narsa o'g'irlasa baribir bir narsa qoladi, lekin tilsiz olov tushsa hamma narsa birday kuyib kul bo'ladi. Ayniqsa maqollarda ko'p uchraydigan mavzu bu o'g'rilikning salbiy oqibatlari va o'g'ring bir kun kelib albatta pand yeyishi xususidadir:

O'g'irlik mol boy qilmas,

O'g'irlik osh badanga yuqmas.

O'g'irlik solsang qo'yningga,
Sirtmoq tushar bo'yningga.

O'g'irlik, o'g'irlik tubi xo'rlik.

O'g'irlik qilgan boyimas.

O'girlik qilib osh yesang,
Bir kuni kelib tosh yeysan.

O'g'ri o'g'irlab yo'lga tushar,
Oxiri borib qo'lga tushar.

O'g'rining yelkasi qisq.

O'g'rining keti quvish.

O'g'rining uyi bo'lmas,
Uyida siri bo'lmas.¹

Xalqimizda yana shunday maqol bor:

Chumchuqdan qo'rqqan tariq ekmas.

Shunga mos ravishda o'g'ri haqida ham maqol keltiriladi:

O'g'ridan qo'rqqan mol yig'mas.

Maqollarimiz shu darajada mukammal tuzilganki ular bir-birining o'rmini to'ldirib ham boradi.

O'g'rining qo'lga ilingan narsani olib ketaverishi haqida ham maqollar keltirilgan. Barchamizga ma'lumki o'g'ri kishi o'g'irlikdan nima tushsa shuni olib ketaveradi. Shunga mos keladigan maqollar "O'zbek xalq maqollari" kitobida ham keltiriladi:

O'g'riga mol qahatmi.

O'g'riga otashkurak ham mol.

¹ Ўзбек халқ мақоллари. II том – Т.: "Фан", 1988, 252-б

Bundan tashqari keltirilgan maqollarda to'g'rilik va egrilik, halollik va qalloblik haqida ham gap boradiki bularning barchasi o'g'ri obrazi bilan yaqin bo'lgan mavzudir. Egrilik va to'g'rilik haqida ham bir qator maqollarda aytib o'tilgan:

Egri bo'lsang sinar qanoting,

To'g'ri bo'lsang chiqadi oting.

Egri yo'ldan yursang ham to'g'ri yur.

Egri tayoqdan to'g'ri soya tushmas.

Rostlik va yolg'onchilik haqida ham maqollarda bot-bot gapirilgan o'rinlar bo'lib, "Rost gapirgan to'g'ri - yolg'onchi o'g'ri" deyilgan o'rinlar ham bor. Maqollar qay mavzuda bo'lmasin ulardagi pur ma'nolilik kishini oqilona fikr yuritishga, to'g'ri yo'ldan yurishga undaydi. Bejizga xalqimiz maqollarni "O'talar so'zi" deb ulug'lamaydilar. Biz bu ilmiy ishimizda faqat bir mavzu yuzasidan maqollarga ozgina nazar tashladik. Hali bizga ma'lum bo'lmagan tomonlari ham anchagina. Maqollarimizning ummoni juda keng va poyonsizdir. Ularni tahlil etish o'rganish tub mohiyatini anglab yetish esa biz yoshlarning oldimizda turgan eng dolzarb masalalardan biridir.

Adabiyotimiz folklori xazinasida maqollardan tashqari boshqa o'nlab janrlar borki, ularda ham biz yuqorida o'rganayotgan mavzu yuzasidan bema'lol izlanish olib borish mumkin. Shulardan biri, shubhasiz, ertak janridir. Bu janr haqida biz juda kichikligimizdanoq qulog'imizga quyiladiki, ertak oxiri yaxshilik bilan tugaydigan asardir. Bobo va buvilarimizdan ertaklarni eshitib katta bo'lamiz va shundan so'ng ertaklarning sehri bizni rom etadi, har safar yana ertak eshitgimiz kelib xarxasha qilamiz, hatto ertak eshitmasdan uxlamaydigan odat chiqaramiz. E'tibor qiladigan bo'lsak, biz bilgan va bilmagan mashhur ertaklarimizda ham o'g'ri obrazlari mavjud. Bularga misol qilib o'zbek xalq ertaklaridan "Uch og'a-ini botirlar" hamda "Egri va to'g'ri" ertaklarini misol qilsak bo'ladi.

Hammamiz sevib o'qigan "Uch og'a-ini botirlar" ertagida botirlardan

kenjasi podshoh xazinasiga kirayotgan o'g'rilarni tutib hammasini birma-bir qilichdan o'tkazadi. Bu voqea ertakda shunday yuz beradi: Bir kishi boy ham emas, kambag'al ham emas ekan. Uning uchta o'g'li bor ekan, uchovi ham o'qigan, oq-u qorani tanigan, yuzlari oyday, o'zlari toyday, yomon bilan yurmagan, yomon bilan turmagan ekan. To'ng'ichi yigirma bir yoshda, o'rtanchasi o'n sakkiz yoshda, kenjasi o'n olti yoshda ekan.

Otasi ularni bir kuni oldiga chaqirib, har birining peshanasini silab:

- O'g'illarim, men boy emasman, mendan qolgan davlat sizlarning maishatingiz uchun kifoya qilmaydi, mendan ortiq narsa umid qilib o'tirmanglar, o'zimdanda keyin baxtsiz bo'lib qolmanglar, deb sizlarni o'qitdim. Yaxshi ot qo'ydim. To'y qildim, voyaga yetkazdim. Buning ustiga sizlarni yana uch narsa bilan tarbiya qildim. Birinchidan, sog'lom vujudli qilib tarbiyaladim, - quvvatli bo'ldingiz. Ikkinchidan, yarog' bilan tanishtirdim – yarog' ishlatishda usta bo'ldingiz. Uchinchidan, qo'rqitmay o'stirdim – qo'rqoq bo'lmay botir bo'ldingiz, yana uchta narsani aytaman, quloqlaringizga olib, eslaringizdan chiqarmanglar. To'g'ri bo'ling bexavotir bo'lasiz. Maqtanchoq bo'lmang – xijolat tortmaysiz. Dangasalik qilmang – baxtsiz bo'lmaysiz. Bundan boshqasini o'zingiz biling. Qora toyni, saman toyni, ko'k toyni asbob-anjomlari bilan tayyorlab qo'ydim. Xurjunlaringizni bir haftalik ovqat bilan to'lg'izdim. Baxtingiz yo'lda, topib olmoqlik uchun dunyoni ko'rgani yo'lga chiqing, dunyoni tanimay, dunyo kishisi bo'lmaysiz. Baxt qushini ushlamoq uchun, baxt oviga chiqing. Xayr o'g'illarim deb turib ketdi...

Uch og'a-ini safarga otlandilar. Yo'lda ular ketma-ket poyloqchilik qilib turishga kelishdilar. Birinchi kecha To'ng'ich botir o'zlariga hujum qilmoqchi bo'layotgan sherni o'ldirdi. Ikkinchi kecha o'rtancha botir ajdarni yengadi. Uchinchida kecha kenja botir podshoh xazinasiga tushmoqchi bo'lgan o'g'rilari bir o'zi devorning narigi tomonidan turib, oshganining boshini sapchaday uzib qirib tashlaydi. Ertasi kun podshoh bo'lib o'tgan voqealardan xabar topgach botirlarni saroyga chorlaydi. Voqealar rivojida podshoh ularga suluv qizlarini beradi va botirlar uylariga ikki yil deganda olti kishi bo'lib qaytishadi. Ularga kenja

botirning o'g'rilarni yer tishlatgani haqiqiy ma'noda baxt olib kelgan edi.

Bundan ko'ramizki ertaklarimizda ham o'g'ri obrazlari va o'g'rilik voqealari juda ko'p uchraydi. Qadimdan avloddan-avlodga o'tib kelayotgan ertaklarimizdan yana biri bo'lgan "Egri va to'g'ri" ertagida ham o'g'ri obraziga bir nazar qaratilgan va uning salbiy oqibati bayon qilingan. Asarning qisqacha mazmuni quyidagicha:

Qadim zamonda bir qishloqda bir yigit bo'lgan ekan. Uning ismi To'g'riboy ekan. Uning bitta ozg'in otidan boshqa hech nimasi yo'q ekan. Borib-borib qishloqda umuman ish qolmabdi, shundan so'ng u otini minib mardikor ishlashga o'tlanibdi. U otini minib yo'l yuribdi, yo'l yursa ham mo'l yuribdi. Yo'lda unga bir piyoda kishi yo'ldosh bo'libdi. "Qayerga borayapsan?"- debdi To'g'riboy. "Mardikorlikka",- debdi haligi odam. To'g'riboy uning otini so'rasa, u Egriboy deb aytibdi. U ham To'g'riboyning otini so'rab olgandan so'ng aytibdi: "Ikkovimizning otimiz juda mos ekan, kel do'st bo'lamiz", - debdi. To'g'riboy uning piyoda yurganini ko'rib unga otini bergan ekan, u bo'lsa otga minib unga bir qamchi berib, otni o'g'irlab qochib qolibdi. To'g'riboy qilgan ishidan afsuslanib o'ylanib yurib ketaveribdi. Bir o'rmonga yetib kelib u yerda bir tandir ko'rib qolibdi. "Kel qorong'uda yurgancha shu tandirning ichiga kirib yotay", - debdi. Bu joy hayvonlar yig'ilish quradigan joy ekan. Hayvonlarga arslon podsho ekan va u yuqoridan turib majlisni boshlabdi. U gapirib bo'lgandan so'ng tulki gap boshlabdi: "Shu o'rmon ortida bir g'or bor. Men shu g'orda turaman. U yerda ko'rpa-to'shaklar, ovqatlar, hammasi bor".

Undan keyin shag'al gap boshlabdi: "Men turgan joyda bir sichqon bor. Uning qirqta tillasi bor. U har kuni shu tillalarini oftobga chiqarib o'ynaydi". Keyin navbat ayiqqa kelibdi: "Shu o'rmonda bir daraxt bor. Uning ikkita shoxi bor. U ko'p dardga davo. Shul mamlakatning podshosining qizi ko'p yillardan beri kasal bo'lib yotibdi. Shu barglarni kim o'sha qizga bersa u tuzalib ketadi". Ayiqdan so'ng bo'ri gap boshlabdi: "Shu o'rmonda bir boyining, qirq ming qo'yi bor. Men har kuni shu qo'ylarning ikkitasini yeyman. Shu atrofda bir cholning bir iti bor. Agar, shu itni boy olsa shu it meni qo'ylarga yaqinlashtirmaydi". Shu gaplarning hammasini To'g'riboy eshitibdi. Bu orada kun chiqibdi va To'g'riboy

birinchi tulki aytgan g'orga boribdi va u yerdagi ovqatlardan to'yib yeb o'sha yerda dam ham olibdi. So'ng shag'al aytgan tepaga boribdi, u yerda sichqonni topibdi, uni o'ldirib qirq tillasini olibdi. So'ng boyning oldiga borib unga: "Qo'yларingizni saqlab qolsam nima berasiz" – debdi. "Qirqta qo'y beraman" – debdi boy. To'g'riboy bo'ri aytgan cholning oldiga borib, uning itini sotib olibdi. Shundan so'ng qo'ylar bo'ridan qutilibdi. Keyin To'g'riboy saroyga borib podshoning qizini tuzatishini aytibdi. Uni saroyga kiritishibdi. To'g'riboy podshoning qiziga ayiq aytgan daraxtning bargini ezib berib ichiribdi. Qiz o'n kun deganda tuzalib ketibdi. Podshoh xursand bo'lib ketib qizini To'g'riboyga beribdi.

Kunlardan bir kun u Egriboyni ko'rib qolibdi. U Egriboyni uyiga kirgizib mehmon qilibdi. Egriboy bu boylik va hurmatga qanday yetishganini so'rabdi. To'g'riboy unga bo'lib o'tgan voqealarni aytib beribdi. Egriboy to'g'ri borib tandirning ichiga kirib yotib olibdi. Kech bo'lgandan keyin hamma hayvonlar yig'ilibdi. Hamma hayvonlar ishlarning chappa ketganini aytibdi. Shu vaqt bir chumchuq uchib kelib: "Chaqimchi tandirda"- deb qichqiribdi. Hamma hayvonlar tandirga qarab yuguribdi. Hayvonlar Egriboyni ko'rib uni g'ajib tashlabdi. Shunday qilib Egriboy jazosini olibdi, To'g'riboy esa murod-maqsadiga yetibdi.

Bu xalq ertagiga nazar soladigan bo'lsak, unda ham o'g'ri obrazining yana bir namunasini ko'ramiz.

Turli xalq dostonlariga nazar soladigan bo'lsak qardosh xalqlar dostonlarida ham o'g'ri obrazi uchraydigan o'rinlarni ko'plab kuzatish mumkin. Shulardan biri qozoq xalqi dostonlaridir.

Qozoq xalqi boy madaniy merosga ega bo'lib, ayniqsa uning xalq og'zaki ijodi juda rivojlangan. Tarixda asosan, chorvachilik bilan shug'ullangan qozoqlarda yozma adabiyot nisbatan keyingi asrlarda paydo bo'ldi. Bu adabiyotning paydo bo'lishida, shakllanishida qozoq xalqi folklorining roli katta bo'ldi. Qozoq oqinlari kuylagan o'lanlar, dostonlar mavzusi rang-barang bo'lib, ularda xalqning tarixi, turmushi badiiy o'z aksini topgan. "Qo'blandi botir", "Erjarg'in" va "Qambar botir" kabi xalq qahromonlarining sarguzashtlarini kuylovchi asarlar, tadbirkor va dono Aldarko'sa haqidagi latifalar, turli marosim

qo'shiqlari, ertaklar qozoq folklorining asosini tashkil etadi.

«Qiz Jibek» dostoni ham liro-epik dostonlardan bo'lib, xalq orasida ancha mashhurdir. Asarda ham o'g'ri obrazlarini kuzatamiz. Bu asarda ikki yoshning o'rtasidagi chin muhabbatga o'sha davrdagi ko'pgina yaramas urf-odatlarining to'siq bo'lganligi tasvirlangan. Go'zal va oqila qiz Jibek To'ligen degan yigitni sevadi. Lekin yigitning otasi Bozorboy bular o'rtasidagi muhabbatga to'siq bo'ladi. To'ligen otasining qarshiligiga qaramay qizni izlab, uning yurtiga ketadi. Yo'lda esa uni Bekejon boshliq **o'g'rilar** orqasidan otib o'ldiradilar. Bekejon ham Jibekni olmoqchi bo'lib sovchi qo'ydirgan va rad javobini olgan edi. Qolmoq xoni Qo'ren Jibekni zo'rlik bilan o'ziga xotin qilmoqchi bo'lib, uning yurtiga qo'shin tortib keladi. Lekin tadbirkor va oqila qiz Jibek aytishuvda Qo'renni yengadi. Bir hiyla bilan uning uchqur otini olib, sevgilisining yurtiga qochib ketadi, chunki To'ligen agar men seni baxtli qilolmay o'lib ketsam, ukam Sonsizboyga tegasan deb vasiyat qilgan edi. Musulmon bo'lmagan qalmoq xoni, Qo'renga xotin bo'lishdan ko'ra, qiz ana shu vasiyatni bajarishni afzal ko'radi.

Ko'pgina dostonlarda sevgilisi vafotidan keyin qizlar o'zlarini o'ldiradilar. Bu asarda esa oqila qiz Jibek ana shu an'anaga qarshi borib sevgan yigiti vasiyatini bajarishga ahd qiladi. Bundan ko'rinadiki qardosh xalqlar adabiyoti bilan o'xshash tomonlarimiz juda ko'p. Biz faqat ularni o'qib tahlil etishimiz lozimdir.

Xullas, xalq og'zaki ijodidan boshlab biz o'g'ri obraziga duch kelamiz. Bu obrazni donishmand xalqimiz yosh avlodni bu noto'g'ri yo'ldan qaytarish uchun ertaklarda va turli asarlarda aytib yurishgan. Xalq maqollarida nafaqat o'g'rilikning yomon illat ekanligini ta'kidlaydi, balki o'g'rilikning o'zi xalqqa ziyon yetkazuvchi illat ekanligini aytadi. Bundan tashqari xalq maqollarida o'g'rining tana a'zolari nomlarini keltirish orqali uning abjirligini ta'kidlashadilar. Xalq og'zaki ijodidagi maqollardan tashqari xalq ertaklarida ham o'g'ri obrazi uchraydi. Buni biz "Uch og'ayni botirlar" ertagida kuzatamiz. O'g'rilarini yo'q qilish orqali uch og'a-inilar o'z baxtiga erishishadi. Xalq ertaklarida to'g'rilik va egrilik xususida ham so'z yuritiladi. Egrilikni aynan o'g'rilik bilan bog'lashadi. Bu jihat esa asarni didaktik xususiyatidan dalolat beradi. Xalq dostonlarida ham o'g'ri

obrazi mavjud bo'lib, uni biz "Qiz Jibek" misolida kuzatamiz. Bu dostonda o'g'ri obrazi epizodik obraz sifatida kiritilgan bo'lib, To'ligen hayoti bilan bog'lanadi.

Xalqimiz dostonlarida ham o'g'ri obrazlarini uchratamiz. "Kuntug'mish" dostonida tog'-u toshlarda sarson bo'lib yurgan Kuntug'mishni Qur'oni karimni o'rtaga qo'yib qasam ichib do'stlashgan Azbarxo'ja rosa aldaydi. Kuntug'mishni mast qilib, xotinini o'g'irlab qochib Buvraxonga olib borib in'om qiladi. Demak dostondagi Azbarxo'jani ham o'g'ri desak bo'laveradi.

Bundan tashqari yana "Maliykai ayyor" dostonida ham o'g'irlik voqeasini kuzatishimiz mumkin. Bu o'rinda endi devlar o'g'ri vazifasini bajargan. Devlar Zebit yurtining shaxzodasini o'g'irlab kelib o'zlariga xizmatkor sifatida asrab yurar edilar.

Dostonlarimiz juda rang-barang bo'lib ularda juda keng epizodli va ko'lamli voqealar tilga olinadi.

1.2 Mumtoz asarlarda o'g'ri obrazi xususida

Mumtoz adabiyotimiz juda boydir. Uning bisotida tengi yo'q adabiy meros mavjud. Shulardan ko'pchiligi ma'lum bo'lib, ko'pchiligi esa sirigicha qolmoqda. Xalq og'zaki ijodida uchragan o'g'ri obrazi mumtoz asarlarimizda ham uchraydi. Mumtoz adabiyotimizda shunday nasriy va lirik asarlarimiz borki, ularda ham o'g'ri obrazining namunalarini ko'ramiz.

Mumtoz adabiyotimiz xazinasida Sa'diy Sheroziyning ham o'rni beqiyos. Uning "Guliston" va "Bo'ston" asarlarida o'g'ri obrazi qatnashgan hikoyatlar, she'rlarni ko'p uchratamiz. "Guliston"ning III bobidagi ya'ni "Qanoatda bolg'on fazilat bayonida" bobidagi yigirma oltinchi hikoyatda quyidagi voqea keltiriladi:

Bir **o'g'ri** bir gadog'a aydi: "Uyalmasmisan, bir arfa miqdori kumush uchun qo'lni har past oldig'a uzatarsen?" Gado aydi:

Bayt:

Bir pul uchun qo'l uzatish yaxshidir,

Qo'l kesilishdinki, olur garchi dur.¹

Yana bir hikoyatga nazar tashlaylik:

Shoirlardan biri o'g'rilarning boshlig'ining oldiga bordi va uni maqtadi. O'g'riboshi buyurdiki, shoirning liboslarini yechib oldilar va tashqari chiqardilar. Bechora sovuqda yalang'och ketar edi. Itlar aning orqasig'a tushdilar. Shoir xohladiki bir toshni ko'tarsa va itlarni yo'q qilsa. Er muz bog'lagan edi, toshni olishdan oldin ojiz bo'ldi. Shoir aytdi: Bu qanday haromzoda odamlardurki, itlarini yechib yubormishlar va toshlarni bog'lamishlar”.

O'g'rilarning boshlig'i darichadan shoirning so'zini eshitdi va kuldi. Dediki: “Ey hakim, mendan bir nimarsa talab qil”. Shoir aydi: “O'z libosimni talab qilurmen, agar ehson buyursang”.

Misra:

Atoyingdin ketishg'a rozidurmiz.

Bayt:

Kishi umidlik bo'lur odam ahli xayrig'a,

Umidi xayringga tutnam, sharringni etkurma

O'g'rilarning raisi ancha tarahhum ayladi va anga libosini qaytarib berdi, bir parcha po'stinni anga zam ayladi va bir qancha tanga ham berdi.²

Yuqoridagi har ikkala hikoyatda ham o'g'ri o'brazi qo'llanganiga guvoh bo'lamiz va keraklicha xulosa chiqaramiz.

Har hikoyatning oxirida masal yoki falsafiy chekinishlar mavjud. Masallar, to'rtlik, baytlar shoirning mulohazalarini tasdiqlash uchun xizmat qilgan.

Asardagi hikoyatlar mavzulari rang-barang bo'lganidek, obrazlar ham xilma-xildir. Shohlar, vazirlar, amaldorlar, ruhoniylar, olimlar, hunarmandlar, dehqonlar, darveshlar, o'g'rilar, pahlavonlar, savdogarlar va boshqalar. Shartli tarzda nomlanuvi «Asir, podsho va vazir» haqidagi (asir podshoni so'kishi, ikki vazir ikki

¹ Шерозий С. Гулистон. “Фан”. 2005.313-бет

² Шерозий С. Гулистон.”Фан”, 2005, 315-бет

xil talqin etishi), («Podsho va uch o'g'li») kichik o'g'ilning ko'rimsiz, ammo jasurligi), «Malik, qul va kema», «No'shiravon va kiyik ovlash», «Tosh bilan bog'liq hikoyat», «Pahlavon va shogirdi» (shogirdning xiyonati va 360 usul), «Pahlavon va so'kish», «**O'g'ri**, shoir va itlar» kabi hikoyatlar xarakterlidir.

Umuman, «Guliston»dagi hikoyatlarni o'qish, undagi mazmun va mohiyatni anglash, hikoyatlardagi qiziqarli tasvirlar har bir o'quvchini o'ziga rom eta oladi.

Turkiy tildagi ilk nasriy asar hisoblangan Nosiruddin Burhoniddin Rabg'uziyning “Qissayi Rabg'uziy” asarida ham qator obrazlar tizimini kuzatishimiz mumkin. “Qissayi Rabg'uziy”da ham o'g'ri obrazining namunasini ko'ramiz. Asardagi “Nuh Alayhissalom qissasi” hamda “Uzum hikoyati” kabilarda ham o'g'ri obrazi ishtirok etgan o'rinlar bor. Nuh payg'ambar va uning kemasining halokati voqealari juda qiziq tasvirlangan. Bu uch qavatli kemaning birinchi qavatida hayvonlardan juft-juftidan, ikkinchi qavatida Nuh va uning qavmi, uchinchi qavatda esa qushlar va qurt-qumursqalar joylashgan edi. Nuhning to'rt o'g'li bor edi. Som, Hom, Yofas va Kanon. Kema yo'ndilar va bu kemaning 124 ming temir xalqasi bor edi. Har bir xalqada bir payg'ambarning ismi bor edi. “Muhammad Rasulullohi” deb bitilgan temir halqani iblis **o'g'irladi**. Nuh har qancha qidirsada topolmadi. Jabroil kelib xabar berdi. Nuhga bergil desalar olmadim deya ont ichdi. Jabroilning jahli chiqdi. Kemaning bir yo'g'ochini olib boshiga urdi. Boshi, ko'zi qonga bulg'andi. Qo'rqqanidan qaytarib berdi. Demak bu yerda biz iblisni o'g'ri deb atasak bo'ladi. Yoki “Uzum hikoyati”da ham shaytoni mal'un uzumning urug'ini **o'g'irleydi**. Har qancha izlashsalarida topmaydilar. Oxiri shaytonni tutib uni so'roqqa tutdilar. U qo'rqqanidan shart evaziga urug'ni qaytarib berdi. Bu shart bo'yicha uzumni uch marta shayton sug'orishi kerak edi. U shu ishini qiladi. Uzumni tulki, sher va to'ng'izning qoni bilan sug'ordi. Shundan buyon odamlar may ichsalar shu uch hayvon xarakterlari ularda ketma-ket namoyon bo'lar emish.”Qissayi Rabg'uziy”da tasvirlangan bu o'g'ri obrazlari farishtalar orqali tasvirlangan. Bundan bilish mumkinki o'g'ri obrazining ildizlari, uning adabiyotga kiritilishi juda uzoq o'tmishga borib taqaladi.

Mumtoz adabiyotimizning yetuk vakili mavlono Lutfiy ijodida ham o'g'ri

obrazi juda chiroyli noanaviy o'xshatishlar bilan berilgan. E'tibor qilamiz:

Gul qamaringdan o'g'irlab oldi jamol aning uchun,
Shohi rabe' oni tikan dorig'a o'g'ritek osar.¹

Ma'lumki, lola tog' va tog' etaklarida o'sadi. Odamlar uni terib, bog'lab shaharga olib keladilar. Ana shu hayotiy holatni mavlono Lutfiy shoirona tarzda sharhlab, go'zal badiiy manzarani chizadi: lola ma'shuqaning yuzidan qizil rangni o'g'irlagani(shuning uchun qizil lola bo'lgani) uchun toqqa qochib ketgan. Shu sababli to odamlar uni bo'ynidan bog'lab olib kelmasalar, lola (o'g'riligidan uyolgani) uchun shaharga kira olmaydi. Bu yangicha sharh, yangicha talqindir. Bunday go'zal tasvirlar mavlono Lutfiy she'riyatining ko'pchilik qismini tashkil etadi.

Hazrat Alisher Navoiy ijodi bir ummondirki, uni o'rganish, tahlil etish uchun kishiga matonat, bilim va keng dunyoqarash lozim bo'ladi. Bobomizning "Xamsa"sining o'ziyoq katta bir xazina. Qaranki mana shu bebaho xazinamizda ham o'g'ri obrazi qo'llangan o'rinlar bor ekan. "Xamsa"ning birinchi dostoni hisoblangan "Hayrat ul abror" qismidagi o'ninchi maqolati, bilamizki, to'g'rilik va egrilik xususida. Maqolatning quyidagi o'rniga etibor qilaylik:

Rostdur ulkim, nazari to'g'ridur,
Kim iligi egridur, ul **o'g'ridur**.
Bo'lsa ilik egrilik ichra samar,
El ani kesmak-la tuz etgay magar.

Bu yerda aytilmoqdaki: "Kimning qarashi to'g'ri bo'lsa, o'sha haq. Kimning qo'li egri bo'lsa, o'zi ham o'g'ri bo'ladi. Kimki qo'li egrilik bilan foyda topgan bo'lsa, xalq uning qo'lini kesib to'g'ri qiladi".

Bundan tashqari asarda turli timsollar to'g'rilik va egrilikka misol sifatida berilgan. Jumladan, har kim agar o'ziga to'g'rilikni odat qilgan bo'lsa, charxning teskari aylanishi bilan uning hech qanday ishi yo'qligi va hatto yoy o'qining

¹ Лутфий. Сенсан севарим. - Т.: 1985

uchishi to'g'ri bo'lganidan unga yerning egriligining hech qanday ahamiyati yo'q ekanligi ham aytilgan.

“Hayrat ul abror” didaktik ahamiyatga molik asar bo'lganligi uchun uning ushbu maqolatida quyidagi nasihatimiz fikrlar ham keltiriladi:

“Kimki to'g'rilik yo'lini bilmoqchi bo'lsa, bilsinki bu ikki xil bo'ladi. Biri shuki, kishining so'zi to'g'ri bo'lsa, uning so'zi bilan birga o'zi ham to'g'ri bo'lishi kerak. Yana biri shuki, yolg'on gapni ba'zilar tassuuf bilan, uyalganidan “To'g'ri” deydi. Oldingisi, hech shubhasiz, yaxshi, lekin ikkinchisi ham yomon emas. Kishi yolg'onni gapirsa ham kam gapirsa! Qani endi shunday odam bizning zamonda ham topilsa”.¹ Navoiy bobomiz ham o'zining hurfikrliligi bilan o'sha davrdayoq kim to'g'ri-yu, kim egri bo'lishi haqidagi o'zining purma'no so'zlarini bayon qilib o'tganlar. Alisher Navoiy to'g'rilik va egrilik haqidagi juda chiroyli o'xshatishlarni ham keltirib o'tadilar:

- ❖ Yo'l qancha to'g'ri bo'lsa, maqsad shuncha yaqin , yo'l egri bo'lsa maqsad uzoqlashganiga ajablanish o'rinsiz.
- ❖ Nay to'g'ri bo'lgani uchun so'fiylar uni yaxshi ko'rishadi; to'g'ri bo'lmasdan egri bo'lsa , tanbeh uchun qulog'i buraladi.
- ❖ Nayza to'g'ri bo'lganidan doim boshi yuqori; arqon esa chirmash bo'lganligi uchun bog'lashga ishlatiladi.
- ❖ Ayvonda yonayotgan shamning bo'yi to'g'ri bo'lgani sababli u kechasi qorog'uda bazmning shohidiga aylanadi.
- ❖ Egri uchish qilib parvona ko'p aylangani uchun oxiri sham o'tiga urilib yonib ketdi.
- ❖ Sarvning qomati to'g'ri bo'lganligi uchun xazon kulfatidin ofat ko'rmay, doim ko'm-ko'k.

¹ Алишер Навоий. Мукаммал асарлар тўплами. Йигирма томлик, еттинчи том. Ҳайратул-аброр. – Т.: “Фан”, 1991. – 390 б.

- ❖ Bog'dagi toza sunbul har narsaga chirmashib o'sgani uchun egrilik uning yuzini qora qildi.
- ❖ Sozlangan torning qili to'g'ri bo'ladi; egri bo'ldimi, sozlanmagani.
- ❖ Xatni to'g'ri yozadigan kishilar haqiqiy sog'lom kishilardir; xat agar egri yozilgan bo'lsa, demak, yozgan odam ham to'g'ri emas.
- ❖ Ko'z tug'ilishdan egri bo'lsa, uning odati bittani ikkita qilib ko'rsatishidadir.
- ❖ Mistar¹ning chizig'iga yozuv to'g'ri kela bergach, qalam boshini ko'tarmasdan yozgani-yozgan. Uning bitta chizig'i egri bo'lsa, xatga bitta dog' tushadi; ko'chirilayotgan nusxada esa har sahifada qiyshiq xat bo'ladi.²

Yuqorida kuzatib shunga guvoh bo'ldikki, Navoiy bobomiz to'g'rilik va egrilikni turli misol va dalillar bilan ochib bergan. Bu kabi misollardagi xilma-xillik, misollardagi noyob topilmalar kitobxonni befarq qoldirmaydi. Biz bu kabi chiroyli dalillanishlarni ko'rib Navoiy bobomiz dahosi naqadar buyuk ekanligiga yana bir bor amin bo'lamiz. Keyingi avlod vakillari orasidan esa unga mos izdoshlar yetishib chiqa oldi. Shulardan biri, shubhasiz, Muhammad Rizo Ogohiydir.

Mumtoz adabiyotimizda qosh an'anaviy timsol sifatida e'tirof etilib kelgan. Ammo Muhammad Rizo Ogahiy bunga yangicha yondashadi. "Qoshning shamshir, yoy, mehrob kabi ko'plab o'xshatilmishlari ma'lum. Ogohiy esa buning ham yangicha qiyosini topadi:

Jamoli bog'ining bodomig'a qasd etgan **o'g'ridur**

Xam o'lmish buki mushkin qoshi ul dilkash qapog' uzra.

Ya'ni shoir nazaricha, jamol, chehra bir go'zal bog'. Ko'z bilan qosh

¹ Mistar – chizg'ich, lineyka.

² Алишер Навоий. Мукаммал асарлар тўплами. Йигирма томлик, еттинчи том. Ҳайратул-аброҳ. – Т.: "Фан", 1991.

oralig'i- qabog' esa bodom. Qabog' ustida egilib turgan qosh – bodomni **o'g'irlash** uchun yashirib boqqa kirgan o'g'ri. Mana shoir kichik bir detaldan yaratgan original dramatik manzara".¹

Milliy uyg'onish davri adabiyotining yetuk vakili sanalgan Shavqiy Kattaqo'rg'oniyni epik xarakterdagi masnaviylariga nazar soladigan bo'lsak ularda ham o'g'ri obrazini kuzatamiz.

Uning «Dar bayoni sharofati mehmon» deb nomlanuvchi muayyan sujet asosiga qurilgan epik xarakterdagi masnaviysi ham xasis va ziqna boy, uning xush fazilatli xotini hamda mehmon obrazlaridagi xatti-xarakatlar, ular o'rtasidagi munosabat tasviriga bag'ishlangan bo'lib, o'z davri uchun ahamiyatli bo'lgan tarbiyaviy fikrlarni ilgari suradi. Masnaviy quyidagi misralar bilan boshalanadi:

Bor edi bir xasisi dangu dag'al,
O'lur erdi diramsiz bo'lsa bag'al.
Birov gar kelmak o'lsa unga gumon,
Sarf o'lur deb anga birorta non,
Otashi hirs aylayur erdi dog',
Ko'runurdi zamona bir nar zog'...

Masnaviyda ziqna boyning uyiga bir musofir yo'lovchi kelib, undan tunab qolishga ijizat so'ragani, boy musofirni uzoq yalintirib nihoyat, zo'rg'a uyiga kiritgani hikoya qilinadi. Boyning «saho soriga dili moyil» xotini ham bor edi. Shoir bu ayolning portreti va xarakterini mana bunday ta'riflaydi:

Bor edi zavjasi, afifai vaqt,
Esmagan zulfi sori sarsori maqt.
Moil erdi saxo sorig'a dili,
Aytmag'an betahoshi so'zni tili.
Turdi ul nodira yeridin chust,
Mehmong'a taome qildi durust...

¹ Адизова И. Ўзбек мумтоз адабиёти тарихи – “Фан”, 2009. 230-б

Shundan so'ng shoir boyning mol-mulki ishtiyoqida uning hovlisini o'g'rilar bosganini, sigirini arqon bo'qqanini, hashamatli imoratlariga nogaxon o't ham tushganini, bu kutilmagan hodisalarni daf etishda mehmonning katta rol o'ynaganini tasvirlaydi. Natijada, ilgarilari hirs-dag'allik loyiga botgan davlatmand shaxs mehmonning fazilatlaridan ta'sirlanib, muruvvat yo'lini tutishga majbur bo'ladi. Shunday qilib, shoir boylar tabiatiga xos bo'lgan dag'allik, xasislik, mol-dunyo ishtiyoqida yonish kabi salbiy xislatlarni inkor etib, hikoyadagi ayol va mehmon xarakteridagi ijobiy tomonlarni tasdiqlash usuli bilan inson qadriyatini ulug'laydi, saxiylik, odamiylik fazilatlarini targ'ib etadi va shu yo'l bilan davr boylarini insofga chaqirmoqchi bo'ladi. Ammo shoir feodal jamiyati ziddiyatlar avj olgan, zulm va zolimlik nihoyasiga yetgan davrda marhamatli hukmdorlarning, saxiy boylarning kam topilishiga qanoat hosil qilgach, bir umr farog'at ko'rmay o'tgan fojiali hayotiga achinib, hokim shaxslarga nisbatan o'zining chuqur nafratini, ular haqidagi keskin xulosasini ham aytadi.

Misollardan shunga guvoh bo'lamizki mumtoz adabiyotimiz vakillari orasidan haqiqiy so'z san'atkorlari yetishib chiqdi. Ular yozgan nodir asarlarda esa biz tahlilga tortgan o'g'ri obrazining ham go'zal namunalarini berilgan. Bu mavzu zamonaviy adabiyotimiz vakillari asarlarida ham qalamga olindi.

II BOB. Hozirgi zamon adabiyotida o'g'ri obrazi talqini

2.1 Hozirgi zamon nasri va nazmda o'g'ri obrazi;

O'g'ri obrazi nafaqat nasrda balki nazmda ham uchrashi mumkinligini yuqorida mumtoz adabiyot misolida kuzatgan edik. Bu kabi ko'rinish XX asr adabiyotida ham o'z ifodasini topdi.

Shoira Zulfiya she'riyatiga nazar solar ekanmiz uning ham qator she'rlarida o'g'ri obrazining juda chiroyli ravishda lirikaga kiritilganining guvohi bo'lamiz. Jumladan, shoiraning quyidagi "O'g'irlamang qalamim bir kun" nomli she'riga e'tibor qilamiz:

"O'g'irlamang qalamim bir kun!"

Hazilingiz ko'chirdi jonim.

Naq yaroqsiz qolarday bugun,

Sirqiradi tole imonim.

O'g'irlamang qalamim bir kun

Meni etmang soqov va cho'loq

Taqinchog'im, anjomim to'kin,

Bari qo'lga, ko'zga yaqinroq

Yotar, olmang qalamim bir kun.

She'rdagi qalam detali shoira uchun shunchalar qadrliki, uni o'g'irlatish shoira uchun jonini olgan bilan barobardir. Bu yerda endi shoira qalamsiz cho'loq va soqov bo'lib qolishi, taqinchoqlari hamda boshqa anjomlarini olsa ham qalamga tegmasliklarini iltimos qiladi. Keyingi bandlarda bu yana ham yuqori cho'qqiga chiqadi:

Yuragimdan uzayin parcha

Va keltirib sham deb tutayin

Xohish, kohish, izmingiz barcha,

Barchasini ko'zga surtayin-
O'g'irlamang qalamim bir kun

Gar paxtadan to'lmasa reja
Sochlarimni berayin qo'shib
Sizga orom bermasa kecha,
Oling mendan! Men bedor jo'shib

Baxtingizni olay qalamga,
Ochib beray sizga qalbingiz.
Shuhratini yoyay olamga
Mehnatingiz, sevgi, kashfingiz.
O'g'irlamang qalamim bir kun!

Sh'erning yakuniy bandlarida shoira qalam bilan insoniyatga va xalqqa xizmat qilishini, ado etolmagan qarzlarini ikki farzandi uzajagini aytadi.

Qalam-la men to'qiyman qo'shiq,
U insonga elga xizmatim.
Burchin bekam ado etgan yo'q
Qarzim uzar ikki farzandim.

Farzand mehri va qalamimni
Xudo haqqi, qo'ying o'zimga.
Usiz qolsam, o'ldi deb mani
Sekin parda torting yuzimga...
O'g'irlamang qalamim bir kun...

Zulfiyaning ushbu she'ridagi yakunda, agar shoira qalamini o'g'irlashsa va usiz qolsa o'ldi deb yozaverishlarini aytadi. She'ring umumiy mazmunidan kelib chiqib gapiradigan bo'lsak, shoira uchun, umuman qalam ahli uchun qalam bu ramziy simvol vazifasini bajarsa-da, lekin muhim yuk tashiy oladi. Qalam ahlini esa qalamsiz tasavvur etish qiyin.

Adabiyotimizdagi o'g'ri obrazi doimo bir insonga qaratilgan bo'lib uning illati sifatida tasvirlanar edi. Muhammad Yusuf esa bu illatni bir insonga mengzamaydi. Balki xalqqa nisbatan ishlatadi. Uning "O'zbek" she'ri yuqoridagi fikrimizga misol bo'la oladi:

Sen paxta terarding yetti bukilib,
Paykalingda eding ey onajonim.
O'zbekmisiz, deya g'alati kulib,
Mendan so'rab qoldi bir tannoz xonim.

Tannozlar bilan ne ishim bor,
Yorab,
Ammo tushundim bu ishorasiga.
Qarshimda turardi u ermaktalab,
Malika boqqandek fuqarosiga...

Mana, gazetalar chiqdi qo'ynidan,
Hammasi o'zicha qiladi talqin.
Tillolar topilgan emish uyingdan,
Oltin ko'milib qolibsan, xalqim.

Sen nega Qrimga bormaysan yozda,
Yoki sen otangni o'gay o'g'lisan?!
So'ksa indamaysan, qo'ymi - to'qlisan,
Ursa yig'lamaysan, demak – **o'g'risan!**

Sahardan shomgacha mo'ltirab, ko'zing
Ko'rmay qolguncha chopding dalangni.
O'g'irlik qilmasang, ayt axir o'zing,

qanday boqayapsan shuncha bolangni.

Xonim nigohidan uqqanlarim bu,
Ko'nglimdan kechganin bilib turadi.
Yasama yuzida yasama qayg'u,
O'zbekmisan, deya kulib turadi.

Bir boplay dedimu tilimni tiydim,
Mayli, odam qurib shunga so'z deymi.
O'zbekni yer tanir,
Osmon taniydi.
Tannoqlar qayoqdan bilsin o'zbekni!¹

Muhammad Yusufning yana bir – “Yangi yil kechasi” deb nomlangan she’rida biz o’g’ri timsolining yanada qiziq ifodalanganini ko’ramiz:

Ko’ngil ma’yus tortdi yilning so’ngida,
Bilmam nimang bilan sehlading qor.
Bugun kuppa-kunduz ko’zim o’ngida,
Yana bir yoshimni o’g’irlading, qor.²

She’rda endi biz odam yoki xalq obrazining o’g’ri qilib tasvirlanganini emas qor detalining o’g’ri deya tasvirlanishini uchratamiz. Muhammad Yusuf she’riyatida bunday qiziq tashbehlarni ko’plab uchratish mumkin.

Zamonaviy she’riyatimizdagi o’zgarishlar, turli oqimlarning kirib kelishi kabi jarayonlar yangi-yangi yo’nalishdagi adabiyot vakillarini tarbiyalaydi. Jumladan, modernizm yonalishida ijod etayotgan qator ijodkorlarning asarlarida turli xil, kishini o’ylashga undaydigan, mushohadakorlikka chorlaydigan fikrlarni

¹ M.Yusuf. Saylanma. “Guliston”, 2011, 13-14-betlar.

² М.Юсуф. Биз бахтли бўламиз.Т.: 2008, 52-б

uchratamiz. Ularni o'qib tushinish uchun kitobxondan ma'lum darajada tayyorgarlik ham talab etiladi. Oddiy kitobxonning ayrim jumalarga tushinishi qiyin kechishi aniq. Shunday yo'nalishda ijod etayotgan modernist shoirlar ijodida ham o'g'ri obrazining ajoyib namunalarini o'z she'rlarida qo'llaganiga guvoh bo'lishimiz mumkin.

Jumladan, iste'dodli shoir Bahrom Ro'zimuhammad yaratgan ana shunday poetik kashfiyotlar an'anaviy shakllarga mos tushmaydi, gaplarning grammatik jihatdan parallel joylashtirilishi, ritorik murojaatlar, xitob ohanglarini ifodalashga yo'naltirilganligi bilan yangicha ohangdorlik kashf etadi. Ularni o'qir ekansiz o'ylanib qolmasdan, fikr yuritmasdan hech iloji yo'q.

Jiyda guli
meni mast qildi
jin chaldi jiydaning ostida
Sap-sariq chiroqmikan bu gullar
yulduz shu'lasidan quvvat olarmi
nuqul qo'shiqchilar jarangi
Eng xavflisi shundaki
bolari nektar yig'moq uchunmas
sizni chaqish uchun keladi.

Jiyda gulining iforidan mast holdagi lirik qahramon go'zallik o'g'risi sifatida tasvirlanadi. Tabiiy go'zallikning sharbatini simiruvchi bolarilar bu "o'g'ri"ni chaqish uchun kelayotganday. Manzara an'anaviy poetik tasvirga sira o'xshamaydi. Shoir aytmoqchi bo'lgan poetik fikr ham yashirin. Tasvirlanayotgan manzaradan kitobxon o'z zehni va tuyg'ulari quvvatiga ko'ra ma'no angelaydi: go'zallik qarshisida es-hushidan ayrilgan lirik qahramonni jin chalishi natijasida u jiyda gullarini sariq chiroqlarga, jiyda guliga parvona bolarining harakatlarini qoshiqchalar jarangiga o'xshatadi. Ayni shu nuqtada poetik ma'no yuzaga chiqadi: bizni o'rab turgan olam va uning go'zalliklaridan hayratlanishni, zavqlanishni bilmagan inson hayoti ro'yoga o'xshaydi. Bunday odamlar faqat yeyish-ichish

g'ami bilan umr o'tkazadilar, ularni bolarining mashaqqatli mehnati natijasi emas, o'z jonining, huzr-halovatining bexavotirligi qiziqtiradi. Bunday odamlar bolaridan ham maydaroq, bolarichalik foyda keltirmaydigan, o'z nafsining qullaridir. She'rdagi manzara ichiga qarab harakatlanuvchi spiral ko'rinishli poetik tafakkur bu dunyoning rang-barang manzaralarga boyligini, har bir manzara o'z ichki ma'nolariga ega ekanligini ifoda qiladi. Shoir she'rlaridagi har bir so'z, har bir satr muayyan bir obrazli ifodalashga, xizmat qila olgan.

O'zbek nasri juda bepoyon xazinadir. XX asr prozasida o'g'ri obrazi qatnashgan asarlar sanalganda birinchi o'rinda albatta G'afur G'ulom va Abdulla Qahhor asarlari aytiladi. G'afur G'ulom asarlaridagi o'g'ri obrazlarini kuzatar ekanmiz avvalo o'g'irlik voqealarini o'zi yashagan davr muhiti bilan bivosita bog'lab tasvirlaydi. Biz G'afur G'ulom hayoti to'g'risida gapirganimizda uning ota-onadan yosh yetim qolgani, hayotning juda ko'p og'irliklarini boshidan kechirgani ko'z o'ngimizda namoyon bo'ladi. Tushunasizki, ijodkor odam xotirasi uchun bu kunlar izziz ketishi mumkin emas edi. Uning qator asarlari, jumladan, «Sen yetim emassan» she'ri, «Shum bola» va «Netay» qissalarida ayni o'sha kunlar asorati yaqqol sezilib turadi. «Mening o'g'rigina bolam» hikoyasida ham bu kabi ko'rinish o'z ifodasini topadi. Hikoya bejizga «voqeyiy hikoya» deb nomlanmagan. Chunki hikoyaga yozuvchi bolaligida guvoh bo'lgan hayotiy hodisa asos qilib olingan bo'lib, u avtobiografik xarakterga ega. Aslida biror odamning uyiga o'g'ri tushishi favqulodda hodisa hisoblanadi. Lekin, guvohi bo'lganimizdek, bu hikoyada yetimlar hovlisiga o'g'ri oralashi sokin tarzda, kundalik voqeadan bayon qilinadi. Nega shunday, degan savol o'z-o'zidan tug'iladi, to'g'rimi? Bu savolga javobni esa asar hodisalari yuz bergan zamon tabiatidan izlash kerak.

Xo'sh, o'sha paytda — 1917-yilning sentabr oylarida yurtning kimlar boshqarayotgandi, odamlarning taqdiri kimlarning qo'lida edi? Nega bu boshqaruvchilar xalqni bu qadar og'ir hayotga giriftor qildilar?

1865-yilda Qo'qon xonligining taslim bo'lishi bilan Turkiston o'lkasi Rossiya imperiyasining mustamlakasiga aylanib qoldi. O'lkani Rossiyadan kelgan, «general-gubernator» deb ataluvchi harbiy kimsalar idora qilar, ular o'zlariga

quloq soladigan odamlarni mingboshi, ellikboshi sifatida amallarga tayinlardilar. Turkistonni faqat xomashyo o'lkasi sifatida ushlab turishni mo'ljallagan imperiya rahbariyati bu yerda sanoat rivojlanishini, qishloq xo'jaligi mahsulotlari qayta ishlanadigan korxonalar qurilishini mutlaqo xohlamas edi. Ilm-fan, ta'lim o'choqlari zamondan orqada qolgan, ularni rivojlantirish uchun jon kuydirib harakat qilinmasdi. G'afur G'ulomning o'zi o'qigan rus-tuzem maktablari ham, aslida, mustamlakachilar chizgan chiziqdan chiqmaydigan ish yurituvchilarni tayyorlash maqsadida ochilgan edi. Tug'ilish darajasi katta bo'lgan Turkiston o'lkasida ishsizlik kuchayib borar, xalqning peshana teri evaziga yaratilgan boyliklar huzurini esa boshqalar ko'rardi. Agar «Mening o'g'rigina bolam» hikoyasiga shu sharoitdan kelib chiqib yondoshsak, bilamizki, o'g'irlik bu o'lkada oddiy hodisaga aylanib ulgurgan edi. Yurt tepasida turganlarning har kuni qilayotgan o'g'riligi oldida, bir kambag'al oilaga boshqa bir nochorning o'g'ri sifatida tushishi favqulodda hodisa bo'lmay qolgandi.

Mana shunday og'ir sharoit yetmagandek, 1914-yilda birinchi jahon urushi boshlangan. Unda har jihatdan ojiz Rossiyaning ham ishtirok etishi — «o'lganning ustiga chiqib tepgan bo'ldi» desak, aslo mubolag'a bo'lmaydi.

Bilamizki, hech qanday urush oson kechmaydi. Ayniqsa, jahon miqyosidagi urushlarda millionlab odamlar qurbon bo'ladi, ularning bundan-da ko'proq farzandlari yetim qoladi. Urush tufayli qanchadan qancha shahar va qishloqlar, go'zal go'shalar vayronaga aylanadi. Urush bo'lar ekan, u moddiy boyliklarni tinimsiz talab qiladi. Birinchi jahon urushining boshlanishiga ham o'sha paytdagi Rossiya singari mustamlakachi mamlakatlar sababchi bo'lgandi. Bu urush ko'plab boshqa millatlar qatori bizning xalqimiz boshiga ham cheksiz kulfatlar soldi. «Mening o'g'rigina bolam» hikoyasi qahramonlari, aslida, mana shu urushning tirik qurbonlaridir.

E'tibor bersak, bu yerda gap faqat hikoyada bevosita ishtirok etayotgan «qora buvi» va «o'g'rigina bola»dagina emas. Ularning suhbatlari ortida norasida bolalar, ayollar va keksalar taqdiri ham turibdi. Zero, ayni shular urush asoratlarini, qiyinchiliklarini ko'proq his qiladilar. Aynan shular alohida himoyaga, e'tiborga

muhtoj bo'ladilar.

E'tibor dedik. Millatga yot odamlar unga rahbarlik qilayotgan sharoitda xalqqa e'tibor to'g'risida gapirishning o'zi ortiqchadir. Shu tufayli ham muallif hikoyachi bola tilidan «Buni qarang-a, bizning uyimizga o'g'ri kepti. Bizni ham odam deb yo'qlaydigan kishilar bor ekan-da, dunyoda...» deya kinoya qiladi. Demak, bunday oilalarni faqat o'g'rilar yo'qlashi mumkin. O'g'rining ishini qiladigan hukmdorlar esa oilaning o'ziga kirmay ham maqsadini amalga oshira oladi.

Yozuvchi shu joyning o'zida hikoyachi bola xarakteriga xos bo'lgan quvnoqlik, biroz quvlikni ham qistirib ketadi:

«Erta o'rtoqlaringa toza maqtanadigan bo'ldim-da: «Bizning uyga o'g'ri keldi». G'urur bilan aytilsa bo'ladi. Lekin ishonisharmikan?»

Lekin, bu «o'g'rigina bola»ning haqiqiy o'g'rilerdan farqi katta. Avvalo, uni bu «harom yo'lga qadam bosish»ga hayotning o'zi, to'g'rirog'i, biz yuqorida aytgan haqiqiy o'g'rilar qilmishi majbur etdi. Yo'qchilik, uyda och o'tirgan oila tirikchiligini bir amallab o'tkazish tashvishi uni shu yo'lga boshlagan.

Yozuvchining tarjimai holidan shuni bilish mumkinki, XX asr boshida o'lkamizda hayot kechirgan xalqlarning iqtisodiy va madaniy ahvoli nihoyatda xarob ko'rinishda edi. Hozir G'afur G'ulom hikoyasi tahlili munosabati bilan yozuvchi tarjimai holi va uning bu mo'jaz hikoyasi o'rtasidagi bog'liklikni kuzatmoqdamiz xolos.

Hamzaning “Zaharli hayot yoxud Ishq qurbonlari” dramasidagi voqealar ham «Mening o'g'rigina bolam»da tasvirlangan davrda yuz beradi. Bu sahna asarining markaziy qahramonlaridan biri Maryamxonning otasi ham «kambag'al kosib» edi. Bu narsa qizning o'z suyganiga erisha olmay, fojiali halok bo'lishiga olib keladi.

Mahmudxo'ja Behbudiy, Abdulla Avloniy, Fitrat, Hamza singari ma'rifatparvar adiblarning o'sha yillari yozgan ko'plab maqolalarida mavjud tarixiy holat manzaralari aniq misollarda aks etgan edi. Ya'ni, o'lkadagi iqtisodiy tanglik tufayli minglab hunarmandlar, jumladan, kosiblar ishi chappasiga ketgan.

Ularning katta qismi bir parcha non umidida mardikorlikka kirgan, qolganlari turli qora ishlar bilan shug'ullanishga majbur bo'lgan. Qo'li gul hunarmandlar orasida gadoylik, o'g'irlik ko'chasiga kirib ketganlari qancha edi.

Endi bu ma'lumotlarni «o'g'rigina bola»ning kampirga aytgan gaplariga solishtiring. Qolaversa, G'afur G'ulom hikoyasidagi fojealar 1917-yilning sentabrida, ya'ni Rusiya bu urushda borgan sari kattaroq talafotlar ko'rayotgan paytda yuz bermoqda. Urush talafotlari esa, tushunasizki, urush ortidagi hayotni beshbattar qiyinlashtirgan edi.

«O'g'rigina bola»ning gap-so'zlari, harakatlaridan sezamizki, uning bu yo'lga kirganiga ko'p ham bo'lmagan. Eng muhimi u, o'zi aytganidek, «juda ham yuzini sidirib tashlagan» odamlardan emas. Bu yigitda andisha bor, uyat bor. Majburan qilib yurgan ishi o'ziga ham hech yoqmaydi. Buni biz o'g'rining kampir bilan dardlashgach, chinakkam insoniy qiyofasiga qaytganidan sezamiz. U yetimlar haqiga qo'lini ham tekkizmaydi. O'g'rining mana shu fazilatlarini go'yo oldindan sezgandek, kampir uni «o'g'rigina bolam» deya erkalab chaqiradi. Aslida bu murojaat kampirning tilidan emas, yozuvchi qalbidan sizib chiqayotgandek. Zero, xalqi boshiga tushgan ko'rgiliklarni o'z hayoti misolida ham totib ko'rgan, yurtdoshlari dardiga sherik bo'lgan G'afur G'ulom «O'g'rigina bola»ga achinmasligi, uning taqdiriga befarq qarashi mumkin emas edi.

Xolis tan olaylikki, G'afur G'ulom hikoyasining «yuki», bu mo'jaz hikoya matniga singdirilgan xalq dardining zalvori nihoyatda katta va jiddiydir. «O'g'rigina bola»ni bu harom, insonni «badnom qiladigan» ishga majburlagan sabablar to'g'risida gapirar ekanmiz, «ona chumchuqday» bir etak yetimni o'z qaramog'iga olgan «qora buvi»ning uyqusini qochiradigan, yarim yildan buyon unga azob berayotgan dardlar ham unikidan kam emasligini his qilamiz. Har kungi yeb-ichadigan narsangiz tayin, yilning har faslida tanlab kiyadigan ohorli ust-boshingiz sarishta bo'lgani uchun «qora buvi» va uning nabiralari holini to'la tasavvur qila olmasligingiz mumkin. Asar insonga o'zgalar dardini, his-tuyg'ularini yaqindan sezishga, idrok etishga yordam beradi. Mana shu nuqtai nazardan qaraydigan bo'lsak, saksondan oshgan, o'zini zo'rg'a eplaydigan

Roqiyabibining har kuni yeyman-ichaman deb turgan to'rt yetimni boqishi, ustini butlashi qanchalar azob ekanini anglaymiz. O'shandagina shu mushtipar ona timsolida o'zbek onasining quyoshdan issiq mehri, oqibati, insoniyligi, shafqati butun bo'y-basti bilan ko'z oldimizda namoyon bo'ladi. Adib nihoyatda shirali tilda, ravon va xalq ruhiga mos usulda hikoya qiladi. O'quvchi «Mening o'g'rigina bolam» hikoyasidagi voqealar muhitiga juda tez tushib qoladi, sentabrning salqin havosi etni junjiktiradi ham. Bugungi yoshlarga biroz tushunarsiz bo'lgan so'z va iboralar izohidan ham ko'rinadiki, yozuvchi o'sha davrdagi odamlarning so'z boyligidan asarida unumli foydalangan. «Qora buvi» hamda «o'g'rigina bola»ning gaplarida ularning yoshi, kasbi, tajribasi manaman deb o'zini ko'rsatib turadi. Eng muhimi esa, G'afur G'ulomga xos bo'lgan xalqqa dardkashlik hislari bu ikki qahramonga ko'chib o'tadi, ularning bir-biriga qilgan muomalasi qatlariga singdirib yuboriladi. Kampirning «o'g'rigina bola»ga achinishi, uni ehtiyot bo'lishga da'vat etadi. Axir bechora kampirning qo'lidan boshqa nima ham kelardi? U hech bo'lmasa pand-nasihati, zo'raki o'g'rining taqdiriga achinishi bilan unga hamdard bo'lmoqlikni xohlaydi. Balki shu mehrni, shu insoniy munosabatni sezgani tufayli ham «o'g'rigina bola» xayrlashayotib kampirni «ona» deb ataydi, gaplariga jon qulog'ini tutib «xo'p» deydi. Hikoyani o'qib tugatgach, o'quvchi ko'nglida bu ikki insonga nisbatan iliqlik, achinish bilan birga qandaydir mung ham qoladi. Bu mung o'z xalqi o'tmishini idrok etgan G'afur G'ulomning qalbida tug'ilgan insoniy hislar bilan hamohangdir.

Bir millat boshqasidan o'zining tili, qiyofasi, urf-odatlarini, tafakkur tarzi va yana o'nlab xususiyatlari bilan ajralib turadi. Hatto, muhabbat va nafrat, shodlik va qayg'u singari tuyg'ular umuminsoniyatga xos bo'lsa-da, ularning namoyon bo'lishi bir millat kishilarida boshqasidan farq qiladi. Deylik, rus millatiga mansub ayollar o'zlarining shodliklarini baralla, hammaning oldida birdek tortinmay namoyish qila olishi tabiiy hisoblansa, o'zbek ayollari har qancha shodlikka to'lmasinlar, yuksak andisha tufayli, o'z quvonchlarini boshqacharoq tarzda bildirishni ma'qul ko'radilar. Milliy o'ziga xoslik inson jismiga ajdodlari orqali o'tsa, ruhiyatiga u tinglab o'sgan alla, ertag-u afsonalar yordamida singadi.

Yozuvchi va shoir o'z millatiga xos bo'lgan xususiyatlarni hammadan ko'ra tezroq va to'laroq ilg'aydi, o'z asarlarida ularni yorqin bo'yoqlarda ifodalaydi. Chinakam milliylik bilan yo'g'rilgan badiiy asarlarda muayyan millatga xos bo'lgan turmush tarzi, urf-odat va ko'nikmalar asar mantiqi va maqsadidan kelib chiqib aks ettiriladi. Shuningdek, qahramonlar xarakterida, ularning dunyoqarashi, harakati va gap-so'zlarida ayni millatga xos jihatlarning ishonarli namoyon bo'lishi asar milliyligini oshiradi. G'afur G'ulomning hajman kichik hikoyasida biz mana shu fazilatlarning yorqin ifodasini ko'ramiz.

G'afur G'ulom asarida og'ir sharoit sabab o'g'irlikka qo'l urgan insofli o'g'ri obrazi sifatida gavdalangan bo'lsa, Abdulla Qahhar asarida o'g'ri jamiyat shaklida yuz ko'rsatadi. Kambag'al dehqon Qobil boboning ho'kizini o'g'ri uradi. O'tmishda Turobjon uchun ikkita anor topib xotining istagini qondira olmaslik, Unsin uchun erksizlik qay darajada fojia bo'lsa, Qobil bobo uchun ham ho'kizdan ajralish shu darajada fojia edi. «Dehqonning uyi kuysa kuysin, ho'kizi yo'qolmasin. Bir qop somon, o'n beshta xoda, bir arava qamish — uy, ho'kiz topish uchun necha zamonlar qozonni suvga tashlab qo'yish kerak bo'ladi». Bu satrlarni o'qir ekanmiz, ulug' yozuvchi Gogolning asarlarini eslab ketamiz.

Oddiy bir idora xizmatchisi o'z ishiga sodiq, kecha-yu kunduz ish bilan band. Lekin hech qachon uning biri ikki bo'lmaydi. Bir kuni qarasa shineli eskirgan. Yamatishning iloji yo'q. Yangi shinel haqida o'ylashga majbur. Lekin pul yo'q. Bitta shinel olish uchun uning mo'ljalida bir yil iqtisod qilish kerak. Iqtisod qilishga qaror qiladi. Kechqurun ichadigan choyidan voz kechadi, oqshomiga sham yoqishni o'ziga man qiladi, ko'chalarda yurganda botinkasini tez to'zishdan saqlash uchun toshlik yerlardan yurmaslik, qadamini yumshoq bosib, ohistagina yurishga harakat qiladi, shunday qilib, ne azoblar bilan pul yig'ib yangi shinel tikdiradi. Biroq bechora xodim shinelni uzoq vaqt kiya olmaydi. Birinchi kiygan kuniyoq uni ko'chada yechintirishadi.

Qobil boboning fojiasi «Shinel»dagi Akakiy Akakiyevichning fojiasidan ham og'ir. Shinel-ku Akakiy Akakiyevichning shaxsiy buyumi. Qobil boboning ho'kizi oilaning rizqi-ro'zi. Ho'kizning yo'qolishi butun oilaning tirikchiligi

to'xtadi degan gap.

Abdulla Qahhor mo'ljalga bexato tegadigan iboralar bilan Qobil boboning bu holatini ta'kidlaydi. «Qobil bobo yalang bosh, yalang oyoq, yaktakchan og'il eshigi yonida turib dag'-dag' titraydi, tizzalari bukilib-bukilib ketadi; ko'zlari javdiraydi, hammaga qaraydi, ammo hech kimni ko'rmaydi». Xuddi shu xildagi ma'nodor iboralar bilan bu xildagi fojining naqadar tiniq ekanini ham ifodalaydi: «Odamlar dod ovozigga o'rganib qolgan: birovni eri uradi, birovning uyi xatga tushadi...» Bu gaplarni yana davom qildirish mumkin bo'lar edi: «Birovning uyi teshiladi, ho'kizi o'g'irlanadi, yana birovning yana bir narsasi. Bu zamon shunday zamon edi».

Bular hammasi fojining o'zi. Hikoyaning keyingi qismlarida asta-sekin komizm elementlari kelib kiradi. Qobil bobo tizzalari bukilib, dag'-dag' qaltirab turgan bir paytda «kimdir shunday kichkina teshikdan ho'kiz sig'ishiga aql ishonmasligi» to'g'risida gapirardi. Shu jumlaning o'zida qandaydir komik yo'nalishdan darak bor edi. Bu komik yo'nalish kuchayib boradi. Abdulla Qahhor hamma vositalardan foydalanadi. Qobil boboning qo'shnisi ellikboshi kelib kiradi. Ellikboshining portreti komik shaklda tasvirlangan; «burunsiz», uning ovozi ham shu yo'nalishga mos: «pang». Yozuvchi ellikboshining qiyofasiga komik bir yo'nalish beradi-da, uning xatti-harakatlariga «ishchanlik», «bilarmonlik» xislati bag'ishlaydi: u «ho'kiz bog'langan ustunni diqqat bilan ko'zdan kechirdi; negadir ustunni qimirlatib ham ko'rdi». «Bilarmonlik harakatlarining sirini Qobil bobo yaxshi bilmas edi. Oddiy mehnatkash kishining go'lligi va ularning taqdirini hal qiladigan hokim sinf vakillarining mug'ombirligi, ular orasidagi ziddiyat — birini go'l qilib qo'ygan, ikkinchisini mug'ombir qilib qo'ygan zamon ustidan nafratlanamiz, shu onning o'zida boboning go'llikdan kelib chiqadigan holiga achinsak, ellikboshi mug'ambirligidan kulamiz.

Qobil boboning bundan keyingi sarguzashtlari ham shu yo'nalishda davom qiladi.

Ellikboshi-ku, «burunsiz» bo'lsa-da, ovozi «pang» bo'lsa-da mug'ombirona harakat qilib cholni bir oz tinchitdi, buning evaziga Qobil bobodan o'zining

«rizq»ini ham undirib oldi. Elikboshidan keyingilar esa Qobil boboni mazax qilishga o'tdilar. Bobo amin oldiga borar ekan, ho'kizning yo'qolganidan xabardor bo'lishiga qaramasdan — unga ellikboshi xabar bergan, albatta — «ha, sigir yo'qoldimi» so'zlari bilan qarshi oladi. Bobodan «ho'kiz» degan so'zni eshitib beparvolik bilan «ho'kiz ekan-da. Himm...» deydi. Bu so'zlarni ketidan nega yo'qolar ekan degan ma'noda «tavba...» deb ham qo'yadi.

Qobil bobo bog'dan kelsa, amin tog'dan keladi. Bobo bori-yo'g'i shu bitta ho'kiz ekanini aytsa, amin chinchalog'ini burniga tiqib kuladi. «Yo'qolmasdan oldin bormidi? Qanday ho'kiz edi?» deb mazax qiladi. Buning ustiga «yaxshi ho'kizmidi, yo yomon ho'kizmidi» deydi. Buning ketidan suyunchi ham so'raydi.

Amin bilan bo'lgan gapning oqibati shu bo'ldiki, u yo'qolgan ho'kiz to'g'risida pristavga xabar qiladigan bo'ldi. Qobil bobo pristavga kelsa aminga qaytaradi, amin - ellikboshiga... Shunday qilib, Qobil bobo o'sha zamon byurokratik zinasidan qanday yuqori ko'tarilgan bo'lsa shunday pastga tushadi. Lekin ho'kizdan darak yo'q edi. Qobil boboning shu xilda behudaga yuqori chiqib, pastga tushishining o'zida komik ma'no bor. O'sha zamon hayotiga xos bo'lgan sansalorlik va buning orqasida amaldorlarning o'z nafslarini qondirish yo'llari mazax qilinadi.

Qobil boboning xarakteri tasvirida ham achinish aralash mazax bor. U go'l, ezilgan, o'zining haq-huquqini talab qilishga odatlanmagan. Elikboshi ustunlarini taftish qilib ko'rgan ediyamki, Qobil bobo «bekorga mushuk oftobga chiqarmi?» qabilida unga narsa tutqizdi. Amin suyunchidan og'iz ochgan ham ediki, unga pul uzatdi. Shu orada kampir ham «qur'on kalit» uchun qancha narsa sarf qildi. Pristav va uning tarjimonlariga esa bundan ham ko'p chiqdi. Bu ishlarni qilar ekan, Qobil bobo dinga ishongan kishilar namoz o'qiganda, ro'za tutganda qanday ish tutsa, shu xilda shak-shubhasiz harakat qilar edi. Bobo uchun bu ishlar hayotning ibtidoiy bir talabi ediki, uni har bir odam yaxshi biladi. Agar shu ishlarni qilmasa go'yo uni birov «sen odammisan» deb ta'na qilayotgandek bo'lar edi. Abdulla Qahhor Qobil boboni shu xilda tasvirlab, uning xarakter xislatlari o'sha davr uchun naqadar tipik ekanini ko'rsatdi.

Pora olganlar ham Qobil bobo obraziga juda mos edi. Qobil bobo porani shak-shubhasiz bir narsa deb tushunsa, ular ham bu ishni shak-shubhasiz deb tushunishardi. Ular uchun faqat pora olish emas, porani olib arzni e'tiborsiz qoldirish ham odatdagi ish edi. Bundan ularning na vijdoni azob tortar, na ularda uyat hissini uyg'otar edi.

Shunday qilib, hayotning jirkanch tomonlarini fojiaiy va komik shaklda aks ettirish ikki tomondan olib boriladi. Qobil bobo qismatini ko'rib biz ich-ichimizdan achinamiz, uning sarguzashtlarini ko'rib yuzimizga tabassum yuguradi, ellikboshi, amin va pristavlarning qilmishlari bilan tanishib, o'sha zamon ustidan kulamiz va nafratlanamiz.

«O'g'ri» hikoyasida aks etgan voqeaga o'xshagan hodisalar o'tmish zamonda juda ko'p bo'lgan. Lekin ezilgan xalq bu voqeaning sirini tushunmagan. To'g'ri, u davrlarda ham Muqimiy, Furqat, Avaz, Hamzaga o'xshagan madaniyatli kishilar bo'lgan. Ular o'z imkoniyatlari boricha bunday hodisalarni fosh qilish uchun kurashganlar ham. Lekin Abdulla Qahhor bunday voqealarning sirini chuqur falsafiy rejada ochib tashlagan.

Abdulla Qahhor yechimda ham o'z mahoratini ko'rsatdi.

A.P.Chexov xatlardan birida shunday degan edi: «Men ajoyib bir komediyaning syujetini o'ylab qo'ydim. Lekin yechimni topa olmayapman. Kimki yangi yechim topsa, o'sha yangi erani kashf qiladi... Yechimni topmasdan men uni yozmayman. Yechimni topaman, keyin ikki haftada yozib tashlayman».

«Anor»ni o'qiyotib, hikoya nima bilan tamom bo'lar ekan deya, orziqib oxiriga yetamiz. Ma'lum bo'ladiki, Turobjon yo'qchilik natijasida fojiaiy bir ish qilib qo'yadi. Shu bilan uning butun hayoti yakunlanadi. «Dahshat»ni o'qiyotib, ruhan qanchalik ezilmaylik, «oxiri nima bilan tugar ekan» degan xayolda hikoyaning oxirgi satrlarigacha boramiz. Unsinning o'limi hikoyadagi butun dahshatni mantiqan yakunlaydi. «O'g'ri»ni o'qiyotib, ham kulib, ham qayg'urib hikoyaning xotimasini bilishni istab qolamiz. Bu hikoyaning oxiri ham

tasvirlangan voqeani mantiqan ifodalaydi.¹

«Ertasiga ellikboshi Qobil boboni boshlab qaynatasi — Egamberdi paxtafurushning oldiga olib boradi. Paxtafurush cholning holiga ko'p achindi va yerini haydab olgani bitta emas, ikkita ho'kiz berdi. Lekin kichkinagina sharti bor. Bu shart kuzda ma'lum bo'ladi...»²

Hikoya shu yo'sinda tugaydi. Bu tugallanish, hikoya davomida tanishganimiz komik holatlar, fojiaiy momentlarni bir nuqtaga yig'ib, o'g'ri ho'kizni o'g'irlagan kishigina emas, balki Qobil bobo yashayotgan zamon, muhit, bu muhitni yaratuvchilar — ellikboshidan tortib pristavgacha, pristavdan tortib paxtafurushgacha hammasi ekanini ongimizga o'rnatadi.

O'tmish hayotimiz uzluksiz fojialardan iborat edi. «O'g'ri»da «odamlar dod ovozigina o'rganib qolgan» degan gap bejiz aytilgan emas. Lekin bu fojialar manbai bir — jaholat va haq-huquqsizlik bo'lsa ham, shaklan ular har xil, bir-birlariga kam o'xshagan bo'lardi. Birini o'g'ri uradi, ikkinchisi sevgilisining oddiygina talabini qondira olmaydi, uchinchisi o'zining mehnat haqini undira olmaydi, to'rtinchisi zo'rlik bilan mardikorlikka jo'natiladi, yana biri oddiygina dardga chalingan yaqin kishisini davolay olmaydi va hokazo...

G'afur G'ulomning «Mening o'g'rigina bolam» hikoyasidagi bir holatga e'tibor qilaylik: Buvim puf deb nosni tuflab, tomga qarab: - O'g'rigina bolam, hoynahoy biror tiriklikning ko'yida tomga chiqqan ko'rinasan, axir kasbing nozik, tumov-pumovingni yozib chiqsang bo'lmaydimi, - debdilar. Aslida bu bo'lmagan gap. Uyga yarim oqshomda o'g'ri - notanish kimsa tushadiyu, u bilan shu tarzada gaplashib bo'ladimi? Gap boshqa yoqda. Zamon shundayki, hammaning ahvoli, hammaning dardi bir amallab tirikchilik o'tkazish. Hikoyada kampir bilan o'g'ri osongina til topib ketish detalini o'ylab topish bilan yozuvchi ana shu mulohazani keltirib chiqaradi. Bu holatni yengil yumor va shunga mos tilda berish esa G'afur

¹ Кўшжонов М. Абдулла Қаҳҳор маҳорати. Тошкент. Гафур Ғулом номидаги адабиёт ва санъат нашриёти, 1988.

² Қаҳҳор А. Асарлар. Уч жилдлик. Т.: Гафур Ғулом номидаги адабиёт ва санъат нашриёти, 1987-1989.

G'ulomning uslubiga xos bayon usulidir.¹Barcha adabiyot ixlosmandlariga ham yaxshi ma'lumki nasrimizda yozuvchi Tog'ay Murodning alohida o'z o'ri bor. Uning uslubidagi xalqonalik va ohangdorlik kitobxonlarni befarq qoldirmaydi. Tog'ay Murodning "Oydinda yurgan odamlar" qissasiga e'tibor qiladigan bo'lsak asarda ikki o'rinda o'g'ri obrazi tilga olinganini kuzatamiz. Asarda bosh qahramon Qoplonning jamiyatdan, undagi adolatsizliklardan norozi bo'lishi va otini yeldirib chopishi asarda shunday tasvirlanadi:

Otliq otini darvoza ustuniga qantardi. Hovliga kirdi, zinadan ko'tarildi, tor yo'lakdan ichkariladi. Shunda, nordon-nordon gapirmish kotib ovozini eshitdi.

Eshik ketida oyoq ildi. Devorga yag'rin berdi.

Kotib kuyundi:

— Qachon jilovlab qo'yiladi bu ig'vogar, g'alamislar-a?! Qachon bartaraf bo'ladi, bu anonimchilar-a?! Avval soliq masalasi edi, endi bu! Rahmat, muxbir aka, haqiqatni tiklagani kelibsiz. Umid qilamanki, hujjatlarimizni ko'rib chiqib, o'sha fisq-u fasodchilarning yozganiga yana qaytib ishonmaysiz!

Begona ovoz so'radi:

— Xolliyev Jo'ra!

Kotib javob berdi:

— Bor, Vaxshivorda yashaydi!

— Saidov Olim!

— Bor, Zardaqla istiqomat qiladi!

— Karimov Xolbek!

— Hayot! Lo'kkada qarilik gashtini surib yuribdi!

— Iltimos, shu odamni bir chaqiring. Bir gurunglashaylik.

— Endi, muxbir aka, Lo'kka olis, ha, olis! Buyog'i, Lo'kkasoydan sel chiqqan! Ot o'tolmaydi!

— Xo'p, To'rayeva Mengsulton!

— Bor!

¹ Muslihiddin Muhiddinov. Suyun Karimov. G'afur G'ulomning poetik mahorati. Sam.: 2005.

— Qayerda?

— Xo'jasoatda! Qarilik nafaqasini o'z vaqtida olib turadi!

— Xo'-o'p. Islomov Bo'riboy!

— He, bu anavi chinorlik dala qorovuli! Kuni dalada o'tadi! Bo'ri akani ertalab bekatda ko'rib edim! Yo'l bo'lsin, desam, Denov borayapman, nos tamom bo'ldi, deb edi!

Qoplon ko'zlarini bir yumib ochdi. Oyoq uchida tashqariladi, tag'in otlandi. Jilovni qo'yib yubordi. Ot o'z ixtiyorida qadamladi.

Qoplon egar qoshiga tikilib bordi-bordi-da, birdan boshini ko'tardi. Shunda, qo'lida jilov yo'qligini bildi. Uzalib, ot boshigacha surilib bormish jilovni tortib oldi.

Ot seskandi, old oyoqlarini xiyol ko'tardi, yo'lga bel bo'ldi.

Qoplon otni chapdagi echki so'qmoqdan soldi.

Soyda satil ko'tarib yurmish ayollar oldidan o'tdi. Adirlab, otiga qamchi bosdi.

Ot g'arq terga botdi, og'ir-og'ir nafas oldi.

Qoplon adir narigi betida otdan tushdi. Ot arqonini toshga o'radi.

Maydaroq bir toshga cho'nqayib o'tirdi. Tizzalarini quchoqladi. Peshonasini bilaklariga qo'yidida... ho'ngrab yig'lab yubordi!

U yig'ladi... inson, **o'g'ri** bo'l, g'ar bo'l, evi bilan bo'l-da. Shundan ko'ra o'lganing yaxshi emasmi. Imon qani, odam degan noming qani, inson... deya yig'ladi.

U yig'ladi... inson, senga pul kerak, inson. Pul deganlari bir qog'oz-ku, inson.

Qog'ozni deb shunchalikka bordingmi, inson... deya yig'ladi.

Ot quloqlarini dikkaytirib-dikkaytirib xo'jasiga qaradi.

Qoplon yig'lay berdi-yig'lay berdi. Qizimish badani sovidi, to'lmish o'pkasi bo'shadi.

Otni xiyol yo'lgacha yetaklab bordi. Ko'zlarini jelagi o'ngiri bilan artdi. Xo'rsina-xo'rsina, otlandi. Chayqala-chayqala, yoqasiga tufladi.

Muxbir so'ramish, kotib aytmish o'sha bandai mo'minlar ko'zo'ngidan bir-bir o'tdi: Xolliyev, Saidov, To'raeva...

Bu bandayi mo'minlar... bu bandayi mo'minlar bundan besh-olti yil muqaddam... rahmatlik bo'lib edi...¹

Asardagi yana bir o'rinda esa qishloq oqsoqollari yig'ilishib navro'z bayramining haftaning qaysi kuni kelsa qanday yil bo'lishi haqida gap ketadi va bu yerda ham oqsaqollardan birining tilidan o'g'ri so'zining tilga olinganini ko'ramiz. Mana o'sha parchaga e'tibor qilaylik:

—Shunday, shunday,—ma'qulladi mulla Namoz.

—Navro'z seshanbada kelar yil ochlik bo'lmaydi, oshlik bo'ladi. Ertagi ekinlar yaxshi bo'ladi, noz-ne'matlar-da yaxshi bo'ladi. Aybi, taxchilroq bo'ladi.

—Yomoni, qon ko'p to'kiladi. El-yurt orasidan rahm-shafqat ko'tariladi.

—O'g'il otadan qaytadi, qiz onadan qaytadi, ayol eridan qaytadi.

—Podsholartaxtdan qula-qula bo'ladi.

—Yomonlik ko'payadi.

—Yog'in-chochindan ayting.

—Yog'in-chochin... qor kam yog'adi, aqllar. Yil oxirida sel ko'p keladi.

—O'zi, Navro'z qaysi kuni kelsa yil yaxshi bo'ladi, azizlar?

—Yakshanba kuni kelsa, ko'p binoyi bo'ladi. O'lim-etimlar oz bo'ladi. Fisq-fasod, yomonlik kam bo'ladi. Navro'z dushanba kuni kelsa-da yaxshi bo'ladi. Aybi, bug'doy tanqis bo'ladi.

—Navro'z chorshanbada kelsa, yil qimmatchilik bo'ladi. Qorin-tomoq uchun qon to'kiladi.

—Fisq-fasod, g'alamislik ko'p bo'ladi.

—Payshanbada kelsa, dardmandlik ko'p bo'ladi.

—Shu yili oy bilan kunda tutiladi, deng.

—Shunday, aqllar, shunday.

—Jumada kelsa, yomg'ir mo'l-ko'l bo'ladi. Aybi, qahraton sovuq bo'ladi.

—Navro'z shanba kuni kelsa.. **o'g'ri**-muttahamlar yili bo'ladi, mushtumzo'rlar

¹ Тоғай Мурод. Ойдинда юрган одамлар - www.ziyouz.com – 2007.

yili bo'ladi.¹

Ushbu parchada biz nafaqat o'g'ri obrazi, balki xalq og'zaki ijodi unsurlari ham bor deb bemalol ayta olamiz. Tog'ay Murod ijodida har doim milliylik havosi ufurib turadi.

Zamonaviy adabiyotimizda yozuvchi Sh.Bo'tayev "Sho'rodan qolgan odamlar" qissasida xalqimiz ongida mutelik psixologiyasini ildiz ottirgan jamiyat va u yetishtirgan odamlar qiyofasini ruhiy tahlil usulidan foydalanib ochib bergan. Ayni shu usulda "Sho'rodan qolgan odamlar" qissasidagi amaki qiyofasini jonlantirishga erishganki, natijada, kitobxon qahramonlarning o'ziga xos dunyosiga duch keladi. Asar voqealari davomida qondosh aka-ukalarning bir-biridan uzoqlashib, yotlashib ketishi oqibatida ular dunyosida sodir bo'lgan ma'naviy-ruhiy buzilishlar haqqoniy tasvirlangan. Yozuvchi ularni go'yo zimdan kuzatadi va barcha xatti-harakatlari, kechinmalarini tabiiyligicha ifodalaydi.

Qissa qahramonlarining nomlari ularning laqablari bilan aytiladi. Qissadagi Akaning ismi biror o'rinda tilga olinmaydi. Asarda Amaki, Nazoratchi, Go'rkov kabi qahramonlar ham borki, ularning timsolida kitobxon yaqin o'tmish kishilarining qiyofasini ko'radi. Toshmurod alam achchig'ida hamda bemehrligi tufayli Amakining buzog'ini o'g'irlab qamaladi. Qishloq odamlarining bu voqeaga o'ziga xos munosabati orqali ularning ichki dunyosi eks ettirilgan:

"Qo'ni-qo'shnilardan hech qaysisi o'g'rilaridan negadir nafratlanishmas, qaytaga ularga ichlari achishib, oh-voh qilishar, ezilishar, go'yoki o'g'irlanganlar emas, o'g'irlatganlar aybdordek: go'yoki pashshadek narsani fildek qilib melisagacha ko'tarib borgan amakidan yozg'irishardi; chunki, amaki da'vosidan voz kechsa ham, melisalar voz kechmasligi oldida bir jondor xuni hech narsa emasligini aytishardi. Hech birining gunohi yo'q, deyishardi; hamma gunoh ularni o'g'irlikka majbur qilganlarda, deyishardi-yu, bu majbur qilganlar kim ekan, degan savolga jo'yali javob aytisholmasdi; hammasiniyam nazarida, u katta kuch ko'zga ko'rinmas, u qandaydir uzoqda, juda uzoqda bo'lib tuyular, u hammani ko'rib-

¹ Тоғай Мурод Ойдинда юрган одамлар - www.ziyouz.com – 2007.

bilib, hol-ahvolidan xabardor bo'lishi kerak holda hech kimni ko'rmayotganligi, hech kimning hol-ahvolidan xabar olmayotganligi odamlarni ajablantirardi, xolos".¹

Bu keltirilgan parchadan soddadil qishloq odamlarining ruhiyatini his qilish mumkin. Qissada Nazaratchi obrazi g'oyat chuqur badiiy tahlil etilgan, chunki u sho'rodan qolgan odamlarning tipik vakilidir.

Bu meshchanlashib ketgan bir ziyolinamo odamning qiyofasidir. Yozuvchi shu obrazni ichdan va sirtidan yoritib, bu tip odamlarning ma'naviy hayotimizga yetkazayotgan zararini ro'yi-rost ochib bergan. Qissadagi voqealar kechagina ko'z oldimizda sodir bo'lgan. Shuning uchun ham kitobxon asar qahramonlarining fojialari, kechmishlari, iztiroblarini chuqur his qiladi, tushunadi. Asar qahramonlari o'zligini unutgan, kechagi kundan bexabar, g'arib kimsalardir. Yozuvchi ana shu g'ariblik mohiyatini yoritishga bor mahoratini safarbar etgan. Adabiyotshunos olim Abdug'afur Rasulov bu haqda shunday deb yozgan edi: "Shoyim Bo'tayev sho'ro odamlarini, kechagi kunni chuqurroq o'rgana bordi, ruhiy-ma'naviy tanazzul sirlarini aniqlashga intildi. Imon-e'tiqod, fayz-tarovat, murod-maqsadlilik qalbi uyg'oq, tavallud topgan ko'ngillardagina bo'lar ekan. Sho'ro mafkurasi, siyosati insoniylikning jon tomiri – yaratganni tanigan, unga talpingan, undagina qo'rqqan ko'ngillarga tajovuz qildi. Masjid-u madrasalar buzib tashlandi, yaroqsiz holga keltirildi; imom-u ulamolar, ahli ilm mahv etildi. Minglab qishloqlardan, Kent-u shaharlardan imon ko'tarilib, fayz keta boshladi. "Sho'rodan qolgan odamlar" qissasida mana shunday qishloqlardan biri tasvirlangan".²

Darhaqiqat, yozuvchi tasvirlagan hayot haqiqati shuki, yetmish yildan ko'proq hukm surgan sho'ro mafkurasi vijdonsiz, imonsiz kishilarning ko'payishiga xizmat qilganligini kitobxon chuqur his qiladi. Sh.Bo'tayev o'z qissalarida kechagi kunimiz yetishtirgan bunday toshbag'ir kishilarning qiyofasini mahorat bilan chizib bergan, ular tufayli ma'naviy hayotimizga yetkazilgan

¹ Бўтаев. Ш. Ҳаёт. Қиссалар. –Т.: "Шарк", 2000. - 235-бет.

² Расулов А. Таваллуд топаётган кўнгил муждалари. Ш.Бўтаевнинг "Ҳаёт" китобига ёзилган сўнгги сўз. –Т.: "Шарк", 2000. - 433-бет.

talofotlar, ruhiy iztiroblar va falokatlarning sabablari-yu oqibatlarini epiklik talabiga ko'ra keng ko'lamda tadqiq-u tahlil qilishga erishgan.

2.2. Asarlarda salbiy va ijobiy ma'nodagi o'g'ri obrazlari tasviri.

Ba'zan kulgining beozor va ozor etkazadigan kulgiga keskin ajratib qo'yish asarlardan noto'g'ri xulosalar chiqarishga ham olib keladi. Hafiz Abdusamatov G'.G'ulomning «Mening o'g'rigina bolam» nomli hikoyasini tahlil qilib shunday fikr yuritadi: «Hikoyada avtor juda kambag'al, qozonini suvga tashlagan oilaning «sichqonlar hassa tayanib» yurgan uyini shilishga tushgan o'g'ri ham, kampirni ham qattiq qoralamoqchi, ularni satira ostiga olmoqchi emas, aksincha, ularni, ayniqsa, o'g'rini oqlamoqchi. Adib kishilarni shunday og'ir ahvolga solib qo'ygan sababini yorqin ocha bilishi tufayli, o'quvchida o'g'riga nisbatan ham simpatiya uyg'otadi...

G'afur G'ulom ham kampirda, ham o'g'rida odamgarchilik, gumanizmni tasvirlaydi». ¹

Bu ko'chirmada ikkita xulosa bor: bir xulosa, yozuvchi kampirni ham, o'g'rini ham umuman, mehnatkash ahlini og'ir ahvolga solib qo'ygan tuzumni qoralaydi, unga nisbatan nafrat toshini otadi. Bu to'g'ri. Ikkinchi xulosa - yozuvchi kitobxonda kampirga nisbatan ham, o'g'riga nisbatan ham simpatiya uyg'otmoqchi, ulardagi gumanizmni ochib bermoqchi. Kampirga nisbatan bu gap balki to'g'ridir, lekin bu gumanizmni ifodalaydigan so'zlar topilganga o'xshamaydi. O'g'ri obraziga nisbatan esa bu fikrlar mutlaqo to'g'ri emas. Nahot, G'afur G'ulom o'g'ridan odamgarchilik, gumanizm izlagan bo'lsa.

Bizning nazarimizda, hikoyaning ma'nosi quyidagicha talqin qilinsa bo'lar edi: mehr to'la ona qalbi. Hayotning og'ir kunlarida ham nur sochib turgan bu qalb oldida o'g'rining muz yuragi o'jiz. Ona qalb haroratini o'g'rini chekintirish, uni egri yo'ldan qaytarish uchun sochayotgani yo'q. Agar shunday bo'lsa, bu soxta bo'lardi, bu holda u o'g'riga ham, kitobxonga ham ta'sir qilolmas edi. Kampir qalb

¹ Абдусаматов Х. Ўзбек сатираси масалалари. Тошкент, Гафур Гулом номидаги бадиий адабиёт нашриёти, 1968 211-б

nurini onalik burchini ado etish uchun to'kadi. Uning nazarida yonida yotgan to'rtta yetimcha ham, o'g'ri ham odamzod farzandlari. O'g'ri shuni tushundi, shuning uchun kampirning uyidan biron narsa olib ketishga jazm qilolmadi. Biroq bu o'g'ri o'z yo'lidan qaytdi degan xulosa emas. U kampirning onalik qalb harorati oldida chekindi, xolos. U bugun kampir qalbining devoridan oshib tushishga jazm qilolmagan bo'lsa, ertaga boshqa bir uyning devoridan oshib tushishi va o'rgangan tirikchilik yo'lini davom qildirishi mumkin. Shu sababdan o'g'ri obrazidan odamgarchilik, gumanizm izlash tasvirlanayotgan obraz va zamon ruhiga zidga o'xshaydi.

Xo'sh, umuman beozor kulgi bormi? Ba'zi faktlarga qaraganda borgan o'xshaydi. Lekin bu beozor kulgining o'ni hayotda ham, adabiyotda ham juda kam ko'rinadi. Shu darajada kamki, hatto uning mavjudligi haqida fikr yuritishga odamning tili bormaydi. N. G. Chernishevskiy har bir yumor asosida bir-biriga bog'liq ikki narsani ko'rgan ekan. Ulardan biri kulgi, ikkinchisi g'am-g'ussa. Bundan shunday xulosa kelib chiqadiki, har bir kulgining tagida kuldiruvchining g'am-g'ussasi yotadi, kuldiruvchi kitobxonni kuldira turib o'sha g'am-g'ussaga sherik qilmoqchi bo'ladi.

G'am-g'ussasiz, inkorsiz kulgi bo'lmasa kerak. Demak, beozor kulgining bo'lishi gumon. Beozor degan termin o'z o'rnida ishlatilmayotganga o'xshaydi. Uning o'rniga kulgi degan termin ishlatilgani maqulmikin. Biroq bu termin ham izoh talab qiladi. Gap shundaki, san'atkor birovning ustidan kula turib, uning shaxsiyatidagi illatlarni fosh qila turib, unga umuman xayrixohlik bildirmaydi. U muayyan bir shaxsning ma'lum tomonlarini inkor qila turib, inkor qilinayotgan tomonlaridan kula turib, uning xarakteridagi ayrim bir tomonlarga xayrixohlik bildirishi mumkin, xolos.

O'zbek adabiyoti va jahon adabiyoti o'rtasida doimo bog'likliklar va tafovutlar bo'lgan. Buni birgina o'g'ri obrazi misolida ham kuzatish mumkin.

Bu kabi holat nafaqat o'zbek xalqi hayotida balki boshqa xalqlar hayotida ham sodir bo'lgan. Masalan, amerikaliklarning o'tmish hayotidan hikoya qiluvchi «Ishbilarmon kishilar» nomli uch qismdan iborat badiiy filmni tomosha qilganmiz.

Yosh bolalarni o'g'irlab, ularning ota-onasidan katta pul talab qilishga o'rganib qolgan ikki «ishbilarmon»ning ta'zirini berib, oxirida Kanada davlatiga qochib o'tib ketishga majbur qilgan jingalaksoch sepkilli bola sarguzashtlari yodingizdan albatta chiqmaydi. Bu filmlar mashhur yozuvchi O. Genri hikoyalari asosida suratga olingandir. Mazkur kinoqissalarning ikkinchisi «Darddoshlar» deb nomlanadi.

Bod kasali bilan og'riyotgan keksa va yolg'iz kishi xonadoniga kuz tunlarining birida o'g'ri tushadi. Qorong'i xonada paypaslanib, bir narsaga tegib ketadi-yu, shundoq ham bedor yotgan qariya bilan yuzma-yuz kelib qoladi. o'g'rining to'pponcha o'qtalib, qo'lini ko'tarish haqida bergan buyrug'iga javoban qariya bod kasali borligi, shu tufayli ham bir qo'lini ko'tara olmasligini ma'lum qiladi...

Nimanidir ilinjida notanish uyga bostirib kirgan, o'zi ham ayni shu kasallikni boshdan kechirayotgan o'g'ri bilan chol o'rtasida nihoyatda samimiy, dilkash suhbat bo'lib o'tadi. Bedavo dard bilan og'rib, uning shifosi uchun qilmagan ishi, ko'rmagan chorasi qolmagan bu ikki insonning bir-birlariga aytadigan hasratlari tun uzog'i tugamaydi...

G'afur G'ulom va O.Genri hikoyalari o'rtasida muayyan o'xshashlik, umumiyliklar borligini ko'rish mumkin. «Mening o'g'rigina bolam»dagi voqealarga aralashmaydigan hikoyachi bolani aytmasa, har ikki asarda ikki nafar bosh qahramon ishtirok etadi. Ikkisida ham qahramonlarning biri keksa, qo'lidan deyarli biror ish kelmaydigan kishi bo'lsa, ikkinchisi «insofli o'g'ri»lardir. «Darddoshlar»da ham, «Mening o'g'rigina bolam»da ham aslida bir-biriga qarama-qarshi manfaat kishilari oxir-pirovardida bir-birining darddoshiga aylanadi. Samimiy suhbat asnosida ular ko'ngillaridagi noxush tuyg'ularini to'kib soladilar, oz bo'lsa-da, yengillik his qiladilar.

Biroq, bu ikki asarni o'zaro aynan o'xshash hikoyalar emas. Nima uchun? Gap shundaki, amerika yozuvchisi qahramonlarining dardi faqat jismoniy og'riq, shunga davo — shifo topish tashvishi bilan cheklanadi. Boshqacha qilib aytganda, «Darddoshlar» hikoyasi ostida katta ijtimoiy g'oya, muhim hayotiy muammolar

yotmaydi. Shu ma'noda bu asar o'quvchida faqat yengil kayfiyat uyg'otishi, turmushda uchrab turadigan tasodiflar tufayli yuzaga kelgan vaziyatning qiziqarliligi bilangina e'tiborni tortadi, xolos. G'afur G'ulom asarida hayot qiyinchiliklaridan charchagan va noiljlikdan shu ishga qo'l urgan insofli o'g'rini kuzatamiz. Bu yerdagi har ikkala asarda ham qaysidir ma'noda o'g'rilarda ijobiylik xislatlarini ko'ramiz, lekin bu bilan biz o'g'rilik ijobiy hodisa deyishdan yiroqmiz.

Tohir Malikning "Shaytanat" romanidagi o'g'ri obrazi esa butunlay boshqacha ma'nodagi o'g'ri tasviridir. Asar qahramoni Elchinning o'g'rilik qilishdan maqsadi butunlay boshqa edi. U bor yo'g'i xotini Noilani Asadbekning odamlari o'ldirgan deb o'ylagani uchun uning qizini o'g'irlash orqali o'ch olmoqchi edi xolos. Lekin bu voqealarning rivoji yaxshilikka olib kelmadi. Asarda Elchin do'sti Zelixon yordamida Asadbekning qizi Zaynabni o'g'irlashi va Kavkazga olib ketishi va yana olib kelib tashlashi ham bu o'g'rilikning g'alati xususiyatlaridan. Voqealar rivojida o'g'rilikning natijalari sifatida Asadbekning qiziga uylanib qolishi kabi voqealar ochib berilgan. Asarda dastlab Elchinning Asadbek qiziga uylanishni xayol qilishi, keyin esa majburan uylanib qolishi ham juda tezlik bilan, voqealar jadalligi bilan tasvirlangan. "Shaytanat"da Asadbek uylanish taklifini Elchinga aytishi uni gangitib qo'ydi. Elchinning Zelixondan maslahat olishi, keyin qarindoshlarini sovchilikka yuborib dabdabali to'y qilish tasvirlari asarda juda qiziqarli yoritilgan. Voqealar rivojidagi konfliktlarni Jamshid va Zaynab vujudga keltiradi. Aslida Jamshidning Zaynabni yaxshi ko'rishi va bu muhabbat Elchinning ham oilasining darz ketishiga sabab bo'lib qolishi asar voqealarini kulminatsion cho'qqi tomon yetaklaydi. Biz asarda yuqorida aytganimizdagi singari real ma'nodagi, ya'ni biror predmet o'g'risi obrazini kuzatmaymiz. "Shaytanat"dagi Elchin obrazini esa "muhabbat o'g'risi", "qalb o'g'risi" deya e'tirof etish mumkin. Asar davomida esa Elchinning qilgan ishlarini o'g'rilikdan boshqa narsa deb baholash qiyin. Shuning uchun ham asarning birinchi qismidagi ushbu voqelik ustidan shunday xulosa chiqarsak bo'ladi nazarimizda. Asardagi Elchin obrazini ham salbiy ma'nodagi o'g'ri deya olmaymiz. Chunki "muhabbat o'g'ri"lari doimo oqlangan.

Jahon adabiyoti vakillarining asarlarini o'qir ekanmiz, ulardagi obrazlar tizimi bilan bizdagi asarlardagi obrazlar tizimi mushtarak ekanligiga guvoh bo'lamiz. Biz yuqorida O.Genri va G'.G'ulom asarlarini taqqoslab ko'rgan edik. Yana bir asar borki, bu asar ham aynan shu asarlar bilan mazmunan mushtarak. Asarlarning har uchchalasida ham o'g'ri obrazi qatnashgan bo'lib, asarlar yakunida uy egasi bilan o'g'rilar juda yaqin munosabatda bo'lib qolishadi. Biz aytmoqchi bo'lgan bu asar turk adabiyotining yetuk vakili Aziz Nesinning "Chegaradagi uy" hikoyasidir. Adibning bu asariga ikki davlat, Turkiya va Gretsiya chegarasining ustida joylashgan bir uyda bo'lgan voqea asos qilib olingan. Bu uy juda arzon bo'lib asar qahramonlari shu uyni puli kamroqligi uchun sotib olishadi. Uyning esa nima uchun arzonligi kitobxonga keyinchalik ma'lum bo'ladi. Uy har ikkala davlatning nazoratida yo'qligi uchun, bu uyda kim yashasa ham o'g'rilar bemalol bostirib kirishib xohlagan narsalarini olib ketishaverardi. Uyning yangi egasi bo'lgan asar qahramonlari esa Gretsiya militsiyasiga murojat qilishsa, ular bu uy Turkiya hududiga qarashini, ularga qaramasligini, Turkiya militsiyasiga murojat qilinsa, ular ham bu uy ularga emas Gretsiya hududiga kirishini aytadi. Asar qahramoni bir necha joylarga murojat qilishiga qaramasdan bu masala ochiqlicha qolaveradi. Uy egalarining esa hech qanday iloji qolmaydi. Asar yakuni esa juda qiziq yakunlanadi. Hikoya qiluvchi qahramon hozirda ushbu uyda oila a'zolari hamda o'g'rilar bilan ahil-inoq hayot kechirayotganligini mamnuniyat bilan tilga oladi.¹ Bu esa yuqoridagi ikki asardagi o'g'rilik voqealari bilan aynan o'xshashdir. Lekin biz yozuvchining bu asaridagi o'g'rilarni ijobiy baholay olmaymiz, chunki ular uyni xuddi bosqinchilardek egallab olishmoqda. Bu kabi asarlar Aziz Nesin ijodida anchaginani tashkil qiladi.

Bundan tashqari biz Isfandiyorning "O'g'ri" nomli fantastik qissasiga e'tibor qiladigan bo'lsak, bundagi o'g'rini esa mutlaqo oqlab bo'lmaydi. Asar bosh qahramoni Proessor laqaabli shaxs boshqa bir kishining tanasiga ya'ni qarib sillasi qurigan tanasini boshqa bir navqiron yosh yigit, Umarxonovning tanasiga

¹ А.Несин. Хар каллада хар хаёл. "Заркалам", 2009.

almashtiradi. Qo'pol qilib aytganda uning tanasini o'g'irlydi. Bu o'g'irlikni esa oqlashning hech qanday iloji yo'q. Asar voqealari jarayonida Professor Umarxonovning qiyofasida uning yaxshi ko'rgan qizini ham yaxshi ko'rib qoladi. Endi yangi tananing egasi bo'lib butunlay boshqa odamga aylanadi. Hatto qilgan yomon ishlaridan afsuslandi ham. Uni sevgi-muhabbat rostdan ham o'zgartirgan edi. U Alyonani rostdan ham sevib qolgan edi. Alyonaning o'limi Professorni butunlay gangitib qo'ydi. Asar fantastik xarakterga ega bo'lganligi uchun unda turli xil g'alati voqealar sodir bo'ladi. Asar oxirida Professorni militsiya xodimlari g'or ichida ushlab olganida u yana asl qiyofasiga qaytib qoladi. Bu esa asarda modernistik xarakterning ham borligidan darak beradi.

O'tkir Hoshimov ijodiga mansub "Urushning so'nggi qurboni" nomli hikoyasini tahlil qilar ekanmiz, unda ham o'g'ri obrazining nihoyatda g'alati ko'rinishi o'z ifodasini topgan. Asardagi o'g'ri, ona ekanligi bu tasvirning juda qiziq ekanligidan dalolat beradi. Hikoyadagi bosh qahramon Umri xola kasal o'g'li Shone'matning sil kasaliga qo'y suti davo bo'lishini bilganidan so'ng, katta o'g'li Shoikromning hovlisidan qulupnay o'g'irlab sotib, puliga qo'y suti olib Shone'matga ichirishi asarda juda ta'sirli tarzda o'z ifodasini topgan. Asardagi ushbu parchaga e'tibor qiladigan bo'lsak, unda o'g'rilik voqeasining sezilib qolish lavhasi aks etgan:

"Xadicha og'iroyoq emasmi, o'zi bilan o'zi ovora bo'lib, bilolmay qolibdi. Ertalab kelsa, ko'cha eshigi lang ochiq, yong'oqqa bog'log'liq sigir yo'q.

"Shu paytgacha sigir tug'ardi, ukamning og'ziga aqalli bir kosa sut tutardim, - deb o'yldi Shoikrom o'kinib. – Qani o'shalar qo'linga tushsa chopib tashlardim".

Shundoq dedi-yu, egasi ming poylasin, o'g'ri – bir. Mana, bundan ikki oycha ilgari Ilhom somovarchining xotinini pichoqlab ketishdi. Bechoraning bittayu bitta echkisi bor ekan. Hovliga o'g'ri tushganini bilib, xotin sho'rlik dod solibdi. Eri choyxonada ekan. Yugurib borib echkinning arqonidan ushlaganmi, xullas, yetib kelgan qo'ni-qo'shnilar qora qonga belanib yotganini ko'rishibdi.

- Shu kunda yana o'g'ri oralab qoldi, - dedi Xadicha ko'rpani qoqib tanha chetiga solarkan. – Qulupnay qizarmasdan bitta qo'ymay terib ketishyapti.

- Vahima qilma! – dedi Shoikrom qovog'ini osib. – Bolalar terib yegandir. O'g'ri qulupnayga keladimi?

- Og'ziga bir dona olgan bo'lsa, buyurmasin. Nega kelmas ekan? Bir hovuchini obchiqib sotsa, bir kosa jo'xori beradi. Ana, borib qarang, devorning bir cheti o'pirilib yotibdi?!”.¹

Yuqoridagi voqealardan so'ng Shoikrom qulupnayga yomg'irli tinda elektr tokini bog'lab qo'yishi va o'zi bilmagan holda onasining qotiliga aylanib qolishi voqeasi kitobxonni dahshatga soladi. Asar yakunidagi bu voqeadan o'g'rining aslida kim ekanligi oydinlashadi. Bu – ona edi. O'z farzandi jonini saqlab qolish uchun shu ishga ham qo'l urgan mushtipar edi. Endi biz uni qanday qilib salbiy ma'nodagi o'g'ri obrazi deya olamiz.

Demak, rostdan ham o'g'ri obrazlarni salbiy va ijobiy guruhlarga ajratsak bo'lar ekan. Badiiy asarlarda o'g'ri obrazlarini bunday guruhlarga ajratib o'rganish, o'ylaymizki, asarlardagi har bir obrazni xarakter jihatidan yanada izchillik bilan o'rganishimizga turtki bo'ladi deb o'ylaymiz.

¹ Ў. Ҳошимов. Танланган асарлар. I том. -Т.: “Шарк”, 2009.

X U L O S A

Adabiyotda har bir asar albatta obrasiz bo'lmaydi. Badiiy obraz tushunchasi esa tor ma'noda asarda qatnashayotgan odam timsolidir. Asarlarda shunday qahramonlar bo'ladiki, biz ularga ko'pam e'tibor beravermaymiz. Shunday obrazlardan biri bu, shubhasiz, asarlardagi o'g'ri obrazidir. Badiiy asarlarda obrazlarning xilma-xilligi va ularning har birining ma'lum yuk tashishi barchamizga ma'lum. O'zbek va jahon nasrining ko'plab asarlariga nazar solsak ularda o'g'ri obrazi qatnashganini ko'ramiz. Eng qadimiy asarlarda ham, folklor namunalari bo'lmish maqol va matallarda ham, xalq ertaklarida ham shu jumladan, "Qissasi Rabg'uziy" asari hamda "Ming bir kecha" turkumidagi ertaklarda ham, zamonaviy o'zbek nasridagi A.Qahhor, G'.G'ulom, T.Malik va boshqalar ijodida ham ko'ramiz. Adabiyotimizdagi asarlarda aynan real ma'nodagi predmet (ho'kiz, qozon-tovoq, tovuq, yegulik)lar o'g'irlanadi. G'afur G'ulomning "Mening o'g'rigina bolam", Isfandiyorning "O'g'ri" jahon adabiyoti vakillari hisoblangan O. Genri hikoyalari yoki turk adibi A. Nesin ijodida esa o'g'ri obrazining har xil ko'rinishlarini kuzatishimiz mumkin.

O'zbek adabiyotining juda qadim davrlaridan boshlab hatto folklor namunalarida ham bu obraz uchraydi. Qadimiy purma'no maqollarimizda bu mavzu xususida misollar anchagina va yana ertak janrida ham o'g'ri obrazining badiiyatini ochib bera oladigan, ibrat bo'la oladigan o'rinlar anchagina. O'g'ri obrazi eshtirok etgan maqollarning hammasida o'g'rilik va uning ziyoni, uning hiyla-nayranglarining qay yo'sinda amalga oshishi, hattoki o'g'rining salbiyligini ochish uchun o'g'ri itning quyrug'i qisq bo'lishini yoki o'g'ri po'pisa bilan qo'rqitishini, yomon ayol yig'isi bilan qo'rqitishini ham aytib o'tgan. Agar o'g'ri shunchalik uddaburon bo'lsa, davogarning o'zi javobgar bo'lib qolishini uqtiradi. Bundan tashqari maqollarda ta'sirchanlikni oshirish maqsadida o'g'rilik voqealarini hayvonlar misolida ham isbot etish o'rinlari mavjud. Maqol shaklan qisqa bo'lib, voqelikni yoyiq holda ifoda qila olmaydi. Binobarin, maqollarda

voqelikni sqiq va ixcham ifodalaydigan aniq va hayotiy obrazlar mavjudki, ular umumiy mulohazalarning yakunidan kelib chiqqan xulosani ko'chma ma'nolarda belgilash imkonini beradi. Ba'zan u yoki bu maqol topishmoq singari tuzilgan bo'lib, voqelik qiyos qilish, solishtirish orqali aniqlanadi.

O'g'ri obrazini maqol janridan tashqari ertak janrida ham uchratish mumkin. O'zbek ertaklaridan biri bo'lgan "Uch og'a-ini botirlar"da kenja botir o'g'rilarni qo'lga tushirgandan so'ng, o'g'rilarni yer tishlatgani haqiqiy ma'noda baxt olib kelgan edi. Bundan ko'ramizki ertaklarimizda ham o'g'ri obrazlari va o'g'rilik voqealari juda ko'p uchraydi.

O'g'ri obrazini nafaqat o'zbek adabiyotida balki qozoq dostonlarida ham uchraydi. «Qiz Jibek» dostoni ham liro-epik dostonlardan bo'lib, xalq orasida ancha mashhurdir. Asarda ham o'g'ri obrazlarini kuzatamiz. Bu asarda ikki yoshning o'rtasidagi chin muhabbatga o'sha davrdagi ko'pgina yaramas urf-odatlarining to'siq bo'lganligi tasvirlangan. Go'zal va oqila qiz Jibek To'ligen degan yigitni sevadi. Lekin yigitning otasi Bozorboy bular o'rtasidagi muhabbatga to'siq bo'ladi. To'ligen otasining qarshiligiga qaramay qizni izlab, uning yurtiga ketadi. Yo'lda esa uni Bekejon boshliq **o'g'rilar** orqasidan otib o'ldiradilar.

Xalq og'zaki ijodida uchragan o'g'ri obrazi mumtoz asarlarimizda ham uchraydi. Mumtoz adabiyotimizda shunday nasriy va lirik asarlarimiz borki, ularda ham o'g'ri obrazining namunalarini ko'ramiz.

Mumtoz adabiyotimiz xazinasida Sa'diy Sheroziyning ham o'rni beqiyos. Uning "Guliston" va "Bo'ston" asarlarida o'g'ri obrazi qatnashgan hikoyatlar, she'rlarni ko'p uchratamiz. "Guliston"ning III bobidagi, ya'ni "Qanoatda bo'lg'on fazilat bayonida" bobidagi yigirma oltinchi hikoyatda aynan o'g'ri obrazi xususida so'z yuritiladi.

Turkiy tildagi ilk nasriy asar hisoblangan Nosiruddin Burhoniddin Rabg'uziyning "Qissayi Rabg'uziy" asarida ham qator obrazlar tizimini kuzatishimiz mumkin. "Qissayi Rabg'uziy"da ham o'g'ri obrazining namunasini ko'ramiz. Asardagi "Nuh Alayhissalom qissasi" hamda "Uzum hikoyati" kabilarda ham o'g'ri obrazi ishtirok etgan o'rinlar bor.

Mumtoz adabiyotimizning yetuk vakili mavlono Lutfiy ijodida ham o'g'ri obrazi juda chiroyli noanaviy o'xshatishlar bilan berilgan. Bu lola guliga nisbatan berilgan tushuncha sifatida ifoda etiladi.

Milliy uyg'onish davri adabiyotining yetuk vakili sanalgan Shavqiy Kattaqo'rg'oniyning epik xarakterdagi masnaviylariga nazar soladigan bo'lsak ularda ham o'g'ri obrazini kuzatamiz. Adibning «Dar bayoni sharofati mehmon» deb nomlanuvchi muayyan sujet asosida qurilgan epik xarakterdagi masnaviysida aynan o'g'ri obrazi to'laqonli o'z aksini topgan.

O'g'ri obrazi nafaqat xalq og'zaki ijodi yoki mumtoz adabiyotimizda, balki XX asr adabiyotida ham o'z ifodasini topdi. Shoir Zulfiya she'riyatiga nazar solar ekanmiz uning ham qator she'rlarida o'g'ri obrazining juda chiroyli ravishda lirikaga kiritilganining guvohi bo'lamiz. Jumladan, shoiraning "O'g'irlamang qalamim bir kun" she'ri fikrimizga misol bo'la oladi.

Adabiyotimizdagi o'g'ri obrazi doimo bir insonga qaratilgan bo'lib uning illati sifatida tasvirlanar edi. Muhammad Yusuf esa bu illatni bir insonga mengzamaydi. Balki xalqqa nisbatan ishlatadi. Uning "O'zbek" she'ri yuqoridagi fikrimizga misol bo'la oladi. "Yangi yil kechasi" she'rida esa tabiatning ne'mati bo'lmish qorni o'g'rilikka mengzaydi.

XX asr prozasida o'g'ri obrazi qatnashgan asarlar sanalganda birinchi o'rinda albatta G'afur G'ulom va Abdulla Qahhor asarlari aytiladi. G'afur G'ulom asarlaridagi o'g'ri obrazlarini kuzatar ekanmiz avvalo o'g'irlik voqealarini o'zi yashagan davr muhiti bilan bivosita bog'lab tasvirlaydi.

G'afur G'ulom asarida og'ir sharoit sabab o'g'irlikka qo'l urgan insofli o'g'ri obrazi sifatida gavdalangan bo'lsa, Abdulla Qahhar asarida o'g'ri jamiyat shaklida yuz ko'rsatadi. Kambag'al dehqon Qobil boboning ho'kizini o'g'ri uradi.

Barcha adabiyot ixlosmandlariga ham yaxshi ma'lumki nasrimizda yozuvchi Tog'ay Murodning alohida o'z o'rnini bor. Uning uslubidagi xalqonalik va ohangdorlik kitobxonlarni befarq qoldirmaydi. Tog'ay Murodning "Oydinda yurgan odamlar" qissasiga e'tibor qiladigan bo'lsak asarda ikki o'rinda o'g'ri obrazi tilga olinganini kuzatamiz. Asarda bosh qahramon Qoplonning jamiyatdan,

undagi adolatsizliklardan norozi bo'lishi asarda o'z ifodasini topgan.

XX asr adabiyotida o'g'ri obrazi ham salbiy ham ijobiy ahamiyat kasb etdi. G'.G'ulom, O.Genri, Tohir Malik ijodlarida ijobiy ma'nodagi o'g'ri obrazlari tasvirlangan bo'lsa, A.Qahhor, T.Murod va Sh.Bo'tayev ijoblarida salbiy ko'rinishdagi o'g'ri obrazlari tasvirlandi.

Xullas xalq og'zaki ijodidan boshlab biz o'g'ri obraziga duch kelamiz. Bu obrazni donishmand xalqimiz yosh avlodni bu noto'g'ri yo'ldan qaytarish uchun ertak va boshqa asarlarda qo'llashgan. Xalq maqollarida nafaqat o'g'rilikning yomon illat ekanligini ta'kidlaydi, balki o'g'rilikning o'zi xalqqa ziyon yetkazuvchi illat ekanligini aytadi. Bundan tashqari xalq maqollarida o'g'rining tana a'zolar nomlaridan foydalanib o'g'rining abjirligini ko'rsatib bermoqchi bo'ladi. Xalq og'zaki ijodidagi maqollardan tashqari xalq ertaklarida ham o'g'ri obrazi uchraydi. Buni biz "Uch og'a-ini botirlar" ertagida kuzatamiz. O'g'rilarning dodini berish orqali uch og'a-inilar o'z baxtiga erishishadi. Xalq ertaklarida to'g'rilik va egrilik xususida ham so'z yuritiladi. Egrilikni aynan o'g'rilik bilan bog'lashadi. Bu jihat esa asarni didaktik xususiyatidan dalolat beradi. Xalq dostonlarida ham o'g'ri obrazi mavjud bo'lib, uni biz "Qiz Jibek" misolida kuzatamiz. Bu dostonda o'g'ri obrazi epizodik obraz sifatida kiritilgan bo'lib, To'ligen hayoti bilan bog'lanadi. Bu kabi ko'rinish mumtoz adabiyot va XX asr adabiyotida ham davom etdi.

Ijtimoiy-siyosiy adabiyotlar

1. Каримов И.А. Адабиётга эътибор – маънавиятга, келажакка эътибор. – Т.: «Ўзбекистон», 2010.
2. Каримов И.А. Ўзбекистон мустақилликка эришиш оstonасида. – Т.: «Ўзбекистон», 2012.
3. Каримов И. А. Ўзбекистон XXI асрга интиломокда. – Т.: «Ўзбекистон», 1999.
4. Каримов И.А. Юксак маънавият – енгилмас куч. – Т.: «Ўзбекистон», 2007.

Ilmiy va badiiy adabiyotlar

5. G‘ulom G‘. Shum bola. – Т.: “Sharq” nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosh tahririyati, 2004.
6. Несин А. Ҳар каллада ҳар хаёл. “Зарқалам”.2009.
7. Абдусаматов Ҳ. Ўзбек сатираси масалалари. –Т.: Ғафур Ғулом номидаги бадий адабиёт нашриёти, 1968.
8. Адабиёт назарияси. 2 томлик. – Т.: «Фан», 1978.
9. Адизова И. Ўзбек мумтоз адабиёти тарихи. –Т.: “Фан” нашриёти, 2009.
10. Алишер Навоий. Мукаммал асарлар тўплами. Йигирма томлик, еттинчи том. Ҳайратул-аброр. – Т.: “Фан”, 1991.
11. Аристотел. Поэтика. – Т.: Ғафур Ғулом номидаги адабиёт ва санъат нашриёти, 1980.
12. Белинский. В.Г – Танланган асарлар. – Т.: ЎзДавНашр, 1955.
13. Бобоев Т. Адабиётунослик асослари. – Т.: «Ўзбекистон», 2002.
14. Бўтаев Ш. Қиссалар. – Т.: 2000.
15. Валихўжаев Б. Ўзбек адабиётунослиги тарихи. – Т.: «Ўзбекистон», 1993.
16. Вохидов Э. Шоиру шеър ушуур. Адабий ўйлар. – Т.: Ғафур Ғулом номидаги адабиёт ва санъат нашриёти , 1987.

17. Воҳидов Р., Неъматов Х., Махмудов М. Сўз бағридаги маърифат. – Т.: “Ёзувчи”, 2001.
18. Ғофуров И. 30 йил изҳори. – Т.: “Фан”, 1989.
19. Жўрақулов У. Худудсиз жилва. Илмий-адабий мақолалар. – Т.: “Фан”, 2006.
20. Исфандиёр. “Ўғри” – Т.: “Ёзувчи” нашриёти, 1999.
21. Йўлдошев Қ. Ёниқ сўз. Адабий ўйлар. – Т.: “Янги аср авлоди” 2006.
22. Каримов Н. XX аср ўзбек адабиёти манзаралари. – Т.: «Ўзбекистон» 2009.
23. Лутфий. Сенсан севарим. - Т.: Ғофур Ғулом номидаги адабиёт ва санъат нашриёти, 1985
24. Қахҳор А. Адабиёт атомдан кучли. – Т.: Ғофур Ғулом номидаги адабиёт ва санъат нашриёти, 1987.
25. Қодиров П. Халқ тили ва реалистик проза. – Т.: “Фан”, 1973.
26. Қуронов Д. “Адабиёт надур” ёки Чўлпоннинг мангу саволи. – Т.: “Зарқалам”, 2006.
27. Қуронов Д. Қалбларни ларзага солган ҳирғоя. // Хуррият. 2008 йил 6- феврал.
28. Қуронов Д. Адабиётуносликка кириш. – Т.: Абдулла Қодирий номидаги халқ меъроси нашриёти, 2004.
29. Қўшжонов М. Бадиий асар композицияси ҳақида мулоҳазалар. – Т.: ЎзАдабий нашри, 1982 .
30. Қўшжонов М. Моҳият ва бадиият. Адабий-танқидий мақолалар. – Т.: Ғофур Ғулом номидаги адабиёт ва санъат нашриёти , 1977.
31. Малик Т. Шайтанат. 1-китоб, – www.ziyouz.com – 2007.
32. Мирвалиев С. Ўзбек романи. – Т.: “Фан”, 1969.
33. Мирзаев С., Шермухаммедов С. Ҳозирги замон ўзбек адабиёти тарихи. – Т.: «Ўзбекистон», 1993.
34. Назаров Б. Абдулла Қахҳорнинг бадиий ҳақиқати. – Т.: 2007.
35. Назаров Б. Бу сеҳрли дунё. – Т.: 1980.

- 36.Орипов А. Эҳтиёж фарзанди. – Т.: Ғафур Ғулом номидаги адабиёт ва санъат нашриёти, 1988.
- 37.Расулов А. Бадиийлик – безавол янгилик. – Т.: “Шарқ”, 2007.
- 38.Расулов А. Бадиийлик – безавол янгилик: Илмий-адабий мақолалар, талқинлар, этюдлар. – Т.: “Шарқ”, 2007.
- 39.Султонов И. Адабиёт назарияси. – Т.: “Ўқитувчи”, 1980.
- 40.Тоғай Мурод. Ойдинда юрган одамлар (қисса). – www.ziyouz.com – 1980.
- 41.Умуров Ҳ. Адабиёт назарияси. – Т.: Шарқ нашриёт – матбаа акциядорлик компанияси бош таҳририяти, 2002.
- 42.Умуров Ҳ. Бадиий ижод мўъжизалари. – С.: “Зарафшон”, 1992.
- 43.Умуров Ҳ. Таҳлил санъати. – Т.: Ғафур Ғулом номидаги адабиёт ва санъат нашриёти, 1978.
- 44.Ў. Ҳошимов Ў. Танланган асарлар. I том.- Т.: “Шарқ” нашриёти. 2009.
- 45.Ўзбек халқ мақоллари. – Т.: “Фан”, 1988.
- 46.Ҳаққулов И. Ижод иқлими. – Т.: 2009.
- 47.Ҳаққулов И. Тақдир ва тафаккур. - Т.: “Шарқ”, 2007.
48. Ҳаққулов И. Эътиқод ва ижод. – Т.: “Фан”, 2007.
- 49.Ҳотамов Н., Саримсоқов Б. Адабиёшунослик терминларининг русча-ўзбекча изоҳли луғати. – Т.: “Ўқитувчи”, 1983.
- 50.Худойбердиев Э. Адабиёшуносликка кириш. – Т.: “Ўқитувчи”, 1995.
- 51.Шарафиддинов О. Мамажонов С. , Норматов У. ва б. XX аср ўзбек адабиёти тарихи. – Т.: “Ўқитувчи”, 1990.
52. Шарафиддинов О. Биринчи мўъжиза. Адабий – танқидий мақолалар. – Т.: 1979.
- 53.Шарафиддинов О. Замон, қалб, поэзия. – Т.: ЎзАдабНашр., 1962.
54. Шарафиддинов О. Ижодни англаш бахти. – Т.: 2006.
55. Шарафиддинов О. Ҳақиқатга садоқат. – Т.: Ғафур Ғулом номидаги адабиёт ва санъат нашриёти. 1989.
- 56.Шарафиддинов О. Чўлпонни англаш. – Т.: “Фан”, 1998.

57. Шеъррозий С. Гулистон. “Фан”, 2005.
58. Шукуров Н. Адабиёшуносликка кириш. – Т.: “Ўқитувчи”, 1979.
59. Шукуров Н. Сўз сеҳри, шеър меҳри. Адабий-танқидий мақолалар. – С.: “Зарафшон”, 1992.
60. Шукуров Н. Услублар ва жанрлар. - Т.: Ғафур Ғулом номидаги адабиёт ва санъат нашриёти, 1973.
61. Юсуф М. Сайланма. “Гулистон” нашриёти, 2011.

MUNDARIJA:

I.	Kirish.....	3
I.	I Bob. Badiiy adabiyot tarixida o'g'ri obraziga nazar	
1.1	Folklor asarlarda o'g'ri obrazi haqida	9
1.2	Mumtoz asarlarda o'g'ri obrazi xususida.....	20
II.	II Bob. Hozirgi zamon adabiyotida o'g'ri obrazi talqini	
2.1	Hozirgi zamon nasri va nazmida o'g'ri obrazi.....	28
2.2	Asarlarda salbiy va ijobiy ma'nodagi o'g'ri obrazlari tasviri.....	48
III.	Xulosa.....	55
IV.	Adabiyotlar ro'yxati.....	59

Ilmiy rahbar:

f.f.n. Davronova M.I.

Bajaruvchi:

Zaripov A.